2. Yuqoriga tik ravishda birin-ketin otilayotgan jismlarning ko'tarilish balandligi 40 m bo'lsa, ular uchrashganda ko'chishlar nisbati nimaga teng?  
A) 2. B) 3. C) 1. D) 4.
3. Ikkita bir xil qayiq suvda  $v$  va  $2v$  tezliklar bilan tekis harakatlanmoqda. Ularga ta'sir qiluvchi qarshilik kuchlari tezlik kvadratiga proporsionaldir.

Qarshilik kuchlari nisbati  $F_1/F_2$  ni toping.

- A) 1/2. B) 2. C) 3. D) 1/4.

4. Ekvator bo'ylab uchirilayotgan kosmik kema dvigateli unga qisqa vaqtda g'arbga tomon yo'nalgan 12,7 km/s tezlik beradi. Shundan so'ng dvigatel o'chirilsa, kosmik kema yerga qaytib tushadimi?  
A) tushadi. B) tushmaydi.  
C) berilganlar yetarli emas.  
D) kema Quyosh sistemasini tark etadi.
5. Har birining massasi 160 kg va uzunligi 6 m ga teng bo'lgan ikkita kater bir-biridan  $L=4$  m masofada joylashgan (rasmga qarang). Katerlarning og'irlik markazlari ularning geometrik markazlari bilan ustma-ust tushadi. Ularning o'zaro tortishish kuchini toping (nN).



- A) 17,1. B) 15. C) 20. D) 16.

6. Blok orqali o'tkazilgan ipning uchlariga 3 kg va 4 kg massali yuklar osilgan. Agar blok o'qidan yuqoriga 96 N kuch bilan ko'tarilsa, birinchi yuk blok o'qiga nisbatan qanday tezlanish bilan harakatlanadi?  $g=10$  N/kg.  
A) 4,2. B) 6. C) 8. D) 2.
7. Kuch momentining birligi qaysi birlik bilan mos tushadi?  
A) J. B)  $kg \cdot m^2/s$ .  
C)  $kg \cdot m/s^2$ . D) N/m.
8. Texnik manometrlar absolyut bosimni emas, balki bosim atmosfera bosimidan qancha ortiq ekanligini ko'rsatadi. Suv

osti kemasidagi manometr 2,8 MPa bosimini ko'rsatayotgan bo'lsa, kema qanday chuqurlikda joylashgan (m)? Dengiz suvining zichligi  $1030 \text{ kg/m}^3$ ,  $g=9,8 \text{ m/s}^2$ .

A) 274. B) 277. C) 283. D) 280.

9. Suvda bir xil chuqurlikda bo'lgan havo pufakchalari ichidagi bosim eng katta radiuslisida qanday bo'ladi?

A) eng katta. B) eng kichik.  
C) chuqurlikka bog'liq. D) bir xil.

10. Idishda 2 kg suv va 2 kg muz termodinamik muvozanatda turibdi.

Aralashmaning issiqlik sig'imi ( $\text{J}/(\text{kg}\cdot\text{K})$ ) nimaga teng?  
A) 11200. B) 12560. C) 12650. D)  $\infty$ .

11. Dyulong Pti qonuniga asosan qattiq jismlarning molyar issiqlik sig'imi  $3R$  ga tengligi ma'lum bo'lsa, temir uchun solishtirma issiqlik sig'imi nimaga teng bo'ladi ( $\text{J}/(\text{kg}\cdot\text{K})$ )? Temirning molyar massasi  $56 \text{ g/mol}$ .

A) 756. B) 823. C) 923. D) 445.

12. Suv bug'i to'yinadigan harorat qanday nomlanadi?

A) shudring nuqtasi. B) nisbiy namlik.  
C) absolut namlik. D) bug'lanish.

13. Protonning massasi  $m_p$ , tezligi  $v$ ,  $\alpha$ -zarra tezligi esa  $v$ . Tezliklar bir tomonga yo'nalgan. Bu sistemaning to'liq impulsi nimaga teng?  $m_\alpha = 4m_p$ ,  $v \ll c$ .


A)  $5 \cdot m_p \cdot v$ . B)  $\sqrt{3} \cdot m_p \cdot v$ .  
C)  $\sqrt{1,73} \cdot m_p \cdot v$ . D)  $2 \cdot m_p \cdot v$ .

14.  $\alpha$ -zarraning dastlabki kinetik energiyasi  $E$ , tezligi  $v$  ( $v \ll c$ ).  $\alpha$ -zarra uzoq masofadan dastlab tinch turgan protonga yaqinlashmoqda.  $\alpha$ -zarra tezligi  $0,95v$  bo'lgan paytda

sistemaning potensial energiyasi nimaga teng?  $m_\alpha = 4m_p$ .

A)  $0,0875E$ . B)  $0,2050E$ .  
C)  $0,07E$ . D)  $0,19255E$ .

15. Quyidagi rasmda kondensatorlardagi energiyalar nisbatini  $(W_1 + W_2)/(W_3 + W_4)$  toping.



A) 1. B)  $7/3$ . C)  $3/7$ . D)  $1/2$ .

16. Proton va  $\alpha$ -zarra bir-biridan d masofada mahkamlab qo'yilgan. Agar  $\alpha$ -zarra bo'shatilsa, u  $v$  tezlik oladi. Agar proton bo'shatilsa, u qanday tezlik oladi?

A)  $2v$ . B)  $3v$ . C)  $4v$ . D)  $v/2$ .

17. EYK  $E=3,5 \text{ V}$  va ichki qarshiligi  $r=1,4 \Omega$  bo'lgan 7 ta tok manbai o'zaro parallel ulanib batareya hosil qilindi. Batareyaga qarshiligi  $R$  ( $R > r$ ) bo'lgan rezistor ulanganda  $3,3 \text{ W}$  foydali quvvat ajraldi. Zanjirdagi to'la tok kuchi (A) qanday?

A) 1. B) 2. C) 5. D) 3,4.

18. O'tkazgich solishtirma qarshiligi  $\rho$ , elektr maydon kuchlanganligi  $E$ . Agar o'tkazgichda erkin elektronlar konsentratsiyasi  $n$  bo'lsa, ularning o'rtacha dreyf tezligini aniqlang.

A)  $v = \frac{E}{n e \rho}$ . B)  $v = \frac{E}{n \rho}$ .  
C)  $v = \frac{n}{E e \rho}$ . D)  $v = \frac{2E}{n e \rho}$ .

19. Ko'plab tranzistorlar yig'indisidan iborat kichik o'lchamdagi asbob ... deb ataladi.

A) magazin. B) seriya.




C) integral sxema. D) batareya.

20. To'g'rilagich vazifasini bajaruvchi yarimo'tkazgichli asbobni ko'rsating.

A) tranzistor. B) qarshilik.  
C) diod. D) reostat.

21. Paramagnetiklar uchun magnitlanish vektorining magnit maydon kuchlanganligiga bog'lanishini ko'rsating.



A) 1. B) 2. C) 3. D) 1 va 2.

22. Massiv gorizontaal platforma vertikal yo'nalishda A amplituda va  $\omega$  siklik chastota bilan garmonik tebranmoqda. Platformaga ko'p sharchalar  $v$  tezlik bilan kelib tushmoqda. Sharchalarning platforma bilan to'qnashuvi elastik bo'lsa, to'qnashuvdan keyin sharchalar qanday maksimal tezlikka ega bo'ladi?

A)  $\omega A - v$ . B)  $\omega A - 2v$ .  
C)  $2\omega A + v$ . D)  $2\omega A - v$ .

23. Kondensatorning sig'imi  $120 \mu\text{F}$  va g'altagining induktivligi  $30 \text{ H}$  bo'lgan tebranish konturidagi magnit maydon energiyasi o'zgarish davrini aniqlang (ms).  $\pi = 3$ .

A) 180. B) 129,6. C) 360. D) 720.

24. Lazer nurlanishi intensivligi  $I=6 \cdot 10^{17} \text{ W/m}^2$ . Polyarizatoridagi o'tgan bu nurlarning intensivligi ( $\text{W/m}^2$ ) qanday qiymatlarni qabul qilishi mumkin?

A)  $3 \cdot 10^{17}$ . B)  $[0; 3 \cdot 10^{17}]$ .  
C)  $[3 \cdot 10^{17}; 6 \cdot 10^{17}]$ . D)  $[0; 6 \cdot 10^{17}]$ .

25. Umumiy shtrixlar soni  $N=400$  bo'lgan difraksiyon panjaraning  $k=2$  tartibli spektri uchun ajrata olish qobiliyati nechaga teng?

A) 800. B) 500. C) 300. D) 100.

26. Diametri 50 cm bo'lgan doira shaklidagi yassi sirtga bir tekis tushayotgan yorug'lik oqimi 0,314 lm ga teng. Sirt yoritilganligini aniqlang (lx).

A) 150. B) 160. C) 200. D) 130.

27. Fotoeffektida moddaga tushayotgan yorug'lik nurining intensivligi 2 marta ortsa, moddadan chiqayotgan elektronlar tezligi qanday o'zgaradi?

A) kamayadi. B) ortadi.  
C) o'zgarmaydi. D) TJY.

28. Elementar zarralarning leptonlar sinfiga qarashli zarralarni ko'rsating.

A) proton, neytron, pozitron.  
B) elektron, neytrino, myuon va ularning antizarralari.

C)  $\pi$ -mezon, K-mezon,  $\eta$ -mezon.  
D) proton, neytrino, pozitron.

29. Stronsiy-89 izotopining o'rtacha yashash vaqti 72,9 sutka. Shu izotopning yarim yemirilish davri (sutka) topilsin.

A) 72,9. B) 101,2. C) 50,6. D) 36,45.

30. Vodород atomidagi elektron asosiy sathda joylashgan. Atom qanday minimal energiya yutishi mumkin (eV)?

A) 3,4. B) 0,85. C) 10,2. D) 12,1.

## Variant – 15

1. Zarraning harakati jadvalda berilgan. Tezlik va tezlanish ta'rifiga asosan

zarraning o'rtacha tezlanishini ( $m/s^2$ ) toping?

t (s)	1	1,1	1,2
x (m)	0	-2	1

A) 280. B) 500. C) -75. D) 300.

2. Vertikal yuqoriga 1 s vaqt intervali bilan birday 30 m/s boshlang'ich tezlik bilan otilgan jismlarning uchrashguncha bosib o'tgan yo'llari nisbatini toping.

A) 1,05. B) 2. C) 1,8. D) 1.

3. Qayiqqa  $v_1$  tezlik berish uchun unga  $F_1$  kuch bilan ta'sir qilish kerak bo'lsa,  $v_2$  tezlik berish uchun qanday kuch kerak? Suvning qayiq harakatiga qarshilik kuchi tezlikka proporsional.

A)  $F_2 = F_1 \cdot v_1/v_2$ . B)  $F_2 = F_1 \cdot v_1 \cdot v_2$ .  
C)  $F_2 = F_1$ . D)  $F_2 = F_1 \cdot v_2/v_1$ .

4. Har birining massasi 100 kg va uzunligi 6 m ga teng bo'lgan ikkita kater bir-biridan  $L=4$  m masofada joylashgan (rasmga qarang). Katerlarning og'irlik markazlari ularning geometrik markazlari bilan ustma-ust tushadi. Ularning o'zaro tortishish kuchini toping (nN).



A) 17,1. B) 15. C) 20. D) 6,67.

5.  $60^\circ$  shimoliy kenglikdan uchirilayotgan kosmik kema dvigateli unga qisqa vaqtda sharqqa tomon yo'nalgan 7,6 km/s tezlik beradi. Shundan so'ng kema dvigateli o'chirilsa, kosmik kema yerga qaytib tushadimi?

A) tushadi. B) tushmaydi.  
C) kema Quyosh sistemasini tark etadi.  
D) berilganlar yetarli emas.

6. Avtomobil bilan yo'l orasidagi ishqalanish koeffitsiyenti 0,3. Yo'lning burilish radiusi 400 m bo'lsa, avtomobil bu joyda qanday eng katta tezlik (m/s) bilan yurishi mumkin?  $g=10$  m/s<sup>2</sup>.

A) 39,6. B) 27. C) 42. D) 34,6.

7. Ish birligi (J) qanday fizik miqdor birligi bilan mos tushadi?

A) kuch momenti. B) magnit momenti.  
C) quvvat. D) impuls momenti.

8. Bir uchi aylanadigan qilib ilingan  $l$  uzunlikdagi yengil metall sterjenga m massali sharcha osildi. Bu sharchaga qanday minimal tezlik berilsa, u eng yuqori nuqttagacha ko'tariladi?

A)  $2\sqrt{gl}$ . B)  $\sqrt{5gl}$ . C)  $\sqrt{gl}$ . D)  $4\sqrt{gl}$ .

9. Suvda bir xil chuqurlikda bo'lgan havo pufakchalari ichidagi bosim eng kichik radiuslisida qanday bo'ladi?

A) eng katta. B) eng kichik.  
C) chuqurlikka bog'liq. D) bir xil.

10. Qanday haroratda suyuqlik va to'yingan bug' orasidagi fizik farq yo'qoladi?


A) erish haroratida.  
B) shudring nuqtasida.  
C) qaynash nuqtasida.  
D) kritik haroratda.

11. Bir xil 4 nC dan elektr zaryadiga ega bo'lgan, radiuslari 4 cm va 6 cm ga teng bo'lgan metall sharlar bir-biriga tekkizilsa, ularning o'zaro elektr ta'sir potensial energiyasi qanday o'zgaradi?

A) 25/24 marta ortadi.  
B) 25/24 marta kamayadi.  
C) 2,25 marta ortadi.  
D) o'zgarmaydi.


12. Massasi 1 kg bo'lgan suyuqlik

haroratning unga berilgan issiqlik miqdoriga bog'liq o'zgarish grafigidan foydalanib, suyuqlikning solishtirma issiqlik sig'imini (kJ/kg·K) va solishtirma bug'lanish issiqligini (MJ/kg) aniqlang?



- A) 20; 3. B) 15; 6.  
C) 20; 4. D) 15; 3.

13. Ikki mol bir atomli ideal gaz dastlab izobarik, so'ngra izotermik kengaydi. Izotermik kengayish uchun gazga 700 J issiqlik berilgan (rasmga qarang). Gaz to'liq kengayishida bajarilgan ishning unga berilgan to'liq issiqlik miqdoriga nisbatini toping.  $T_0=30$  K.



- A) 0,9. B) 0,8. C) 0,53. D) 2.

14. Protonning massasi  $m_p$ , tezligi  $0,5v$ ,  $\alpha$ -zarra tezligi esa  $v$ . Tezliklar bir tomonga yo'nalgan. Bu sistemaning to'liq impulsi nimaga teng?  $m_\alpha = 4m_p$ ,  $v \ll c$ .  
A)  $5 \cdot m_p \cdot v$ . B)  $\sqrt{3} \cdot m_p \cdot v$ .  
C)  $\sqrt{1,73} \cdot m_p \cdot v$ . D)  $4,5 \cdot m_p \cdot v$ .

15. Proton va  $\alpha$ -zarra bir to'g'ri chiziq bo'ylab uzoq masofadan bir xil ( $v \ll c$ ) tezlik bilan bir-biriga yaqinlashmoqda. Ta'sirlashuv so'ngida

protonning tezligi moduli qanday bo'ladi?  $m_\alpha = 4m_p$ .

- A)  $2v$ . B)  $3v$ . C)  $1,7v$ . D)  $2,2v$ .

16. Proton va  $\alpha$ -zarra bir-biridan d masofada mahkamlab qo'yilgan. Agar proton bo'shatilsa, u  $\sqrt{5}v$  tezlik oladi. Agar  $\alpha$ -zarra va proton bir vaqtda bo'shatilsa, zarralar qanday tezlik oladi?


- A)  $0,6v$  va  $-0,4v$ . B)  $0,5v$  va  $-2v$ .  
C)  $0,8v$  va  $-0,4v$ . D)  $0,25v$  va  $-v$ .

17. O'tkazgichdagi tok zichligi  $j$ , elektr maydon kuchlanganligi  $E$ .

O'tkazgichning solishtirma qarshiligi  $\rho$  nimaga teng?

- A)  $j/E$ . B)  $1/Ej$ . C)  $Ej$ . D)  $E/j$ .

18. Doimiy tok zanjirining elementlari quyidagicha:  $E_1=2$  V,  $r_1=0,25$   $\Omega$ ,  $r_2=0,5$   $\Omega$ . Zanjirdagi tok kuchi 16 A. BC nuqtalar orasidagi potentsiallar farqini toping (V).  $E_1 < E_2$ .



- A) 2,5. B) 10. C) 5. D) 6.


19. Diod va tranzistorlar .... bo'lishi mumkin.

- A) lampali va yarimo'tkazgichli.  
B) lampali va metall.  
C) metall va dielektrikli.

20. Elektr o'tkazuvchanligi eng katta bo'lgan moddani ko'rsating.

- A) metall. B) yarimo'tkazgich.  
C) suyuqlik. D) dielektrik.

21. Diamagnetiklar uchun magnitlanish vektorining magnit maydon kuchlanganligiga bog'lanishini ko'rsating.



- A) 1. B) 2. C) 3. D) 1 va 2.
22. Moddiy nuqtaning tebranish amplitudasi  $A$ . Agar uning tezlanishini amplitudasi  $a$  bo'lsa, tezligining amplitudasini toping.  
A)  $\sqrt{A/a}$ . B)  $\sqrt{A \cdot a}$ .  
C)  $A \cdot \sqrt{A/a}$ . D)  $\sqrt{a/A}$ .
23. Kondensatorning sig'imi  $125 \mu\text{F}$  va g'altagining induktivligi  $20 \text{ H}$  bo'lgan tebranish konturidagi magnit maydon energiyasi o'zgarish davrini aniqlang (ms).  $\pi = 3$ .  
A) 600. B) 300. C) 90. D) 150.
24. Astronomiyada "yorug'lik yili" nomli uzunlik o'lchovi bor. Bu birlik necha metrni tashkil etadi?  
A)  $9,5 \cdot 10^{20}$ . B)  $9,5 \cdot 10^{14}$ .  
C)  $9,5 \cdot 10^{15}$ . D)  $9,5 \cdot 10^{12}$ .
25. Qanday rangdagi ko'zga ko'rinuvchi nurlarning muhitdagi tezligi eng katta bo'ladi?  
A) qizil. B) ko'k.  
C) binafsha. D) yashil.
26. Yorug'lik kuchi  $20 \text{ cd}$  bo'lgan nuqtaviy yorug'lik manбайдan  $R=10 \text{ cm}$  masofadagi maksimal yoritilganlikni toping (lx).  
A) 5000. B) 4000.  
C) 2000. D) 4000.
27. Fotoeffektida moddaga tushayotgan yorug'lik nurining chastotasi 2 marta ortsa, vaqt birligida moddadan chiqayotgan elektronlar soni qanday o'zgaradi? A) kamayadi. B) ortadi.

C) o'zgarmaydi. D) Tjy.

28. Nuklonlar elementar zarralarning qaysi sinfiga qarashli?  
A) fotonlar. B) leptonlar.  
C) barionlar. D) mezonlar.
29.  $\beta^+$  yemirilish natijasida K yadrodan uchib chiqqan zarra tashqi elektron qobiq bilan ta'sirlashishi natijasida qanday zarra hosil bo'ladi?  
A) elektron va pozitron.  
B) neytrinolar.  
C) gamm kvantlar.  
D) yorug'lik fotonlari.
30. Uran yadrosi 1 ta  $\alpha$  va 2 ta  $\beta$  yemirilishga uchragandan so'ng undagi protonlar soni qanday o'zgaradi?  
A) o'zgarmaydi. B) 2 taga kamayadi.  
C) 2 taga ortadi. D) 1 taga kamayadi.


## Variante – 16

1. Jism  $500 \text{ m}$  balandlikdan boshlang'ich tezliksiz pastga tashlandi. Jismning oxirgi sekunda bosib o'tgan yo'lini toping (m).  
A) 95. B) 105. C) 85. D) 70.
2. Vertikal yuqoriga  $1 \text{ s}$  vaqt intervali bilan birday  $30 \text{ m/s}$  boshlang'ich tezlik bilan otilgan jismlarning uchrashguncha bosib o'tgan yo'llari farqini toping (m).  
A) 2. B) 1,8. C) 1. D) 2,5.
3. Jismning boshlang'ich tezligi  $10 \text{ m/s}$  ga teng. Jismga faqat muhitning qarshilik kuchi ta'sir qiladi deb hisoblab, u to'xtagunga qadar qancha masofani bosib o'tishini aniqlang (m). Qarshilik kuchi tezlikka proporsional. Qarshilik koeffitsiyenti  $2 \text{ kg/s}$  ga teng. Jism massasi  $4 \text{ kg}$ .

A) 10. B) 25. C) 20. D) 30.

4.  $60^\circ$  shimoliy kenglikdan uchirilayotgan kosmik kema dvigateli unga qisqa vaqtda g'arbga tomon yo'nalgan  $6,6$  km/s tezlik beradi. Shundan so'ng kema dvigateli o'chirilsa, kosmik kema yerga qaytib tushadimi?  
A) tushadi. B) tushmaydi.  
C) kema Quyosh sistemasini tark etadi.  
D) berilganlar yetarli emas.

5. Tomoni  $a=0,8$  m bo'lgan deformatsiyalanmaydigan kvadrat plastinka O nuqtadan o'tuvchi o'q atrofida aylanishi mumkin. Plastinkaning turli nuqtalariga plastinka tekisligida yotuvchi kuchlar ta'sir etmoqda:  $F_1=1$  N,  $F_2=\sqrt{2}$  N,  $F_3=2$  N. Aylanish o'qiga nisbatan umumiy kuch momentini (N·m) aniqlang.



A) 0,5. B) 0,5. C) 1,4. D) 1,6.


6. Liftda joylashgan qiya tekislik ustida  $6$  kg massali brusok turibdi. Agar lift  $3$  m/s<sup>2</sup> tezlanish bilan yuqoriga ko'tarilsa, brusokning qiya tekislikga ko'rsatadigan normal bosim kuchini aniqlang (N). Bunda qiyalik burchagi  $60^\circ$  ga teng (N).  $g=10$  N/kg.  
A) 15. B) 16. C) 39. D) 20.
7. Idishda suv va suvga aralashmaydigan, zichligi  $300$  kg/m<sup>3</sup> bo'lgan suyuqlik quyilgan. Ularning chegarasida to'la botgan holda zichligi  $400$  kg/m<sup>3</sup>

bo'lgan buyum suzib yuribdi. Buyum hajmining qanday ulushi suvda bo'ladi?

A) 0,08. B) 0,2. C) 0,23. D) 0,14.


8. Bir uchi aylanadigan qilib ilingan  $l$  uzunlikdagi vaznsiz ipga  $m$  massali sharcha osildi. Bu sharchaga qanday minimal tezlik berilsa, u eng yuqori nuqtagacha ko'tariladi?  
A)  $2\sqrt{gl}$ . B)  $\sqrt{5gl}$ . C)  $\sqrt{gl}$ . D)  $4\sqrt{gl}$ .
9. Suyuqliklarning juda kichik hajmdagisi qaysi shaklda bo'ladi?  
A) shar. B) sfera.  
C) shaklga ega emas. D) silindr.
10. Ideal gaz atomlarining o'rtacha kvadratik tezligi qiymati  $500$  m/s ga teng. Biror jarayon yakunida bosim  $1,2$  marta ortib, gaz zichligi  $1,2$  marta kamaydi. Bunda atomlarning o'rtacha kvadratik tezligi (m/s) qanday bo'lib qolgan?  
A) 600. B) 500. C) 200. D) 120.
11. Quyidagi tasdiqlardan to'g'rilarini aniqlang.  
1) monokristall moddalar issiqlikdan kengayganda ularning shakli o'zgaradi;  
2) eriganda hajmi o'zgarmaydigan moddalarning erish harorati tashqi bosimga bog'liq;  
3) monokristall moddalar issiqlikdan kengayganda ularning shakli o'zgarmaydi;  
4) eriganda hajmi o'zgarmaydigan moddalarning erish harorati tashqi bosimga bog'liq emas;  
5) eriganda hajmi ortadigan moddalarning erish harorati tashqi bosimga bog'liq.  
A) 1, 2, 5. B) 1, 2, 3.  
C) 1, 3, 5. D) 2, 3, 5.

12. Bir mol bir atomli ideal gaz dastlab izoxorik qizdirildi, so'ngra izotermik kengaydi. Izotermik jarayonda kengayishda 6,4 kJ issiqlik berildi. Gazning kengayishida bajargan ishining unga berilgan to'liq issiqlik miqdoriga nisbatini toping.  $T_0=160$  K.




- A) 0,7. B) 0,78. C) 0,62. D) 0,66.
13. Protonning massasi  $m_p$ , tezligi  $0,5v$ ,  $\alpha$ -zarra tezligi esa  $v$ . Tezliklar o'zaro teskari yo'nalgan. Bu sistemaning to'liq impulsi nimaga teng?  $m_\alpha = 4m_p$ ,  $v \ll c$ .
- A)  $3,5 \cdot m_p \cdot v$ . B)  $4,5 \cdot m_p \cdot v$ .  
C)  $1,5 \cdot m_p \cdot v$ . D)  $0,5 \cdot m_p \cdot v$ .
14. Proton va  $\alpha$ -zarra bir to'g'ri chiziq bo'ylab uzoq masofadan bir xil  $v$  ( $v \ll c$ ) tezlik bilan bir-biriga yaqinlashmoqda. Ta'sirlashuv so'ngida  $\alpha$ -zarraning tezlik moduli qanday bo'ladi?  $m_\alpha = 4m_p$ .
- A)  $1,2v$ . B)  $0,3v$ . C)  $0,7v$ . D)  $0,2v$ .
15. Yuzasi  $25 \text{ cm}^2$  bo'lgan ikki parallel plastinkalarga qarama-qarshi ishorali moduli  $1,77 \text{ nC}$  ga teng bo'lgan zaryadlar berilgan. Plastinkalar orasidagi elektr maydon kuchlanganligi (kV/m) nimaga teng?
- A) 90. B) 70. C) 60. D) 80.
16. O'tkazgichning solishtirma qarshiligi  $\rho$ , undagi tok zichligi  $j$ . Elektr maydon kuchlanganligi  $E$  nimaga teng?
- A)  $\rho/j$ . B)  $\rho j$ . C)  $1/j\rho$ . D) 0.

17. Quyidagi sxemada K va L qismdagi umumiy sig'imni toping.



- A) 6C. B) 3C. C) 2C. D) C.

18. Berilgan sxemadagi ampermetrning ko'rsatishini aniqlang (A).



- A) 1. B) 2. C) 3. D) 4.

19. Akkumulyator olishi mumkin bo'lgan eng katta elektr miqdori .... deb ataladi.


- A) tok kuchi. B) qarshilik.  
C) zaryad sig'imi. D) kuchlanish.

20. Magnit jihatdan qaraganda qaysi moddalar uchun magnit qabul qiluvchanlik manfiy hisoblanadi?

- A) paramagnit. B) diamagnit.  
C) ferromagnit. D) A va B.

21. Amplitudasi 2,2 cm bo'lgan prujinali mayatnikda yuk muvozanat vaziyatidan boshlab siljishi to'rtinchi marta 1,2 cm ga teng bo'lgan vaqt ichida qanday yo'lni (cm) bosib o'tadi?
- A) 8,8. B) 7,6. C) 5,6. D) 10.

22. Rasmda vakuumli dioddagi tok kuchining anod kuchlanishga



bog'lanish grafigi keltirilgan. Diodning to'yinish tokini aniqlang (A).

A) 4. B) 0,4. C) 0,04. D) 0,004.

23. O'zgaruvchan tok tarmog'iga ketma-ket rezistor ( $R=10 \Omega$ ), kondensator ( $C=8 \text{ mF}$ ) va induktiv g'altak ( $L=80 \text{ H}$ ) ulangan. Tokning siklik chastotasi  $\omega=1,25 \text{ rad/s}$  bo'lgan paytdagi quvvat koeffitsiyentini aniqlang.

A) 0,5. B) 0. C) 1. D) 0,7.

24. Astronomiyada masofani o'lchashda ishlatiladigan astronomik birlik (a.b yoki a.u) necha km ga teng?

A) 150 mln. B) 100 mln.  
C) 50 mln. D) 120 mln.

25. Qanday rangdagi ko'zga ko'rinuvchi nurlarning muhitdagi tezligi eng kichik bo'ladi?

A) binafsha. B) ko'k.  
C) qizil. D) yashil.

26. Lazer nuri  $\pi \cdot 10^{-6}$  sr fazoviy burchakda tarqalmoqda. Nurning quvvati 1 kW. Lazer nurining yorug'lik kuchini toping (GW/sr).

A) 0,3. B) 0,5. C) 0,6. D) 0,8.

27. Fotoeffekt hodisasida moddaga tushayotgan yorug'lik nurining intensivligi 2 marta ortsa, moddadan vaqt birligida chiqayotgan fotoelektronlar soni qanday o'zgaradi?

A) 4 marta ortadi. B) 4 marta kamayadi. C) 2 marta ortadi. D) 2 marta kamayadi.


28.  $\eta$ -mezon elementar zarralarning qaysi sinfiga qarashli?

A) fotonlar. B) leptonlar.  
C) barionlar. D) mezonlar.

29. Pozitron va elektron mos holda 2 m/s va 1,5 m/s tezlik bilan bir-biri tomon  $\pi/4$  burchak ostida harakatlanib annigilyatsiyalandi. Hosil bo'lgan  $\gamma$ -kvantlar impulslari  $p_1$  va  $p_2$  larni taqqoslang.

A)  $p_1 > p_2$ . B)  $p_1 \gg p_2$ .  
C)  $p_1 < p_2$ . D)  $p_1 \approx p_2$ .

30. Rasmda qandaydir modda atomlar sonining vaqtga bog'liqlik grafigi keltirilgan. Shu grafikdan foydalanib, 6 sutka ichida qancha atom yemirilganini aniqlang.



A)  $12 \cdot 10^{20}$ . B)  $12 \cdot 10^{19}$ .  
C)  $14 \cdot 10^{20}$ . D)  $5 \cdot 10^{19}$ .

### Variant – 17

1. Qanday balandlikdan (m) erkin tashlangan jism oxirgi sekundda 75 m masofani o'tadi?

A) 300. B) 150. C) 320. D) 110.


2. Vertikal yuqoriga 1 s vaqt intervali bilan birday 30 m/s boshlang'ich tezlik bilan otilgan jismlarning uchrashgan paytdagi oniy tezliklari nisbatini toping.

A) 1. B) 2. C) 1,8. D) 1,1.

3. Massasi 100 kg bo'lgan qayiqning harakatiga suvning qarshilik kuchi tezlikka proporsional bo'lib, proporsionallik koeffitsiyenti 8 kg/s ga teng. Qayiqning boshlang'ich tezligi 4 m/s ga teng bo'lsa, uning to'xtaguncha bosib o'tgan masofasini toping (m)?  
A) 40. B) 50. C) 25. D) 30.
4. Bino lifti harakatlana boshlagach, undagi dinamometrغا osilgan yukning og'irligi 5 N dan 6 N gacha o'zgardi. Bunda lift qaysi tomonga va qanday tezlanish bilan harakatlana boshlagan (m/s<sup>2</sup>)?  $g=10$  N/kg.  
A) 1 m/s<sup>2</sup> tezlanish bilan yuqoriga.  
B) 1 m/s<sup>2</sup> tezlanish bilan pastga.  
C) 2 m/s<sup>2</sup> tezlanish bilan pastga.  
D) 2 m/s<sup>2</sup> tezlanish bilan yuqoriga.
5. Sharcha birinchi gal suvga, ikkinchi gal simobga, uchinchi gal esa aralashmaga tashlandi. Qaysi holda sharchaga eng katta Arximed kuchi ta'sir qiladi? Suv zichligi 1000 kg/m<sup>3</sup>, simob zichligi 13600 kg/m<sup>3</sup>, aralashma zichligi 650 kg/m<sup>3</sup>, shar zichligi 450 kg/m<sup>3</sup>.  
A) uchinchisida. B) ikkinchisida.  
C) birinchisida. D) hammasida bir xil.
6. Qanday to'qnashuvda massalari teng bo'lgan sharlar tezligi o'zaro almashinadi?  
A) sharlarning elastik to'qnashuvida.  
B) sharlarning markaziy to'qnashuvida.  
C) sharlarning elastik markaziy to'qnashuvida.  
D) sharlarning har qanday to'qnashuvida.
7. Tomoni  $a=0,4$  m bo'lgan deformatsiyalanmaydigan kvadrat plastinka O nuqtadan o'tuvchi o'q

atrofida aylanishi mumkin.

Plastinkaning turli nuqtalariga plastinka tekisligida yotuvchi kuchlar ta'sir etmoqda:  $F_1=1$  N,  $F_2=2\sqrt{2}$  N,  $F_3=2$  N,  $F_4=\sqrt{2}$ . Aylanish o'qiga nisbatan umumiy kuch momentini (N·m) aniqlang.



- A) 0,5. B) 0,4. C) 1,4. D) 1,6.

8. Massasi 1 tonnaga teng bo'lgan kosmik kema yer sirtidan 1700 km balandlikda turibdi. Uning potensial energiyasi nimaga teng (GJ)? Yerning massasi  $M=6 \cdot 10^{24}$  kg, Yer radiusi  $R=6300$  km ga teng.

- A) -50. B) 50. C) 25. D) -25.

9. Yer sirtidagi jism  $R/n$  balandlikka ko'tarilganda bajarilgan ishni toping.  $R$ -Yer radiusi,  $g$ -yer sirtidagi erkin tushish tezlanishi.


- A)  $mgR/(n-1)$ . B)  $nmgR$ .  
C)  $mgR/n$ . D)  $mgR/(n+1)$ .

10. Erkin siljiy oladigan porshen ostida 273 K haroratda ideal gaz bor. Porshen siljib gazning hajmi 20 foizga ortganda gazning harorati necha selsiyga o'zgargan?

- A) 54,6. B) 80. C) 84. D) 68,6.


11. Bir atomli ideal gaz dastlab adiabatik so'ngra izobarik kengaydi. Gazning boshlang'ich temperaturasi bilan oxirgi temperaturasi teng. Gaz to'liq kengayishda A ish bajarilsa, adiabatik kengayishda qancha ish bajariladi?





A)  $A$ . B)  $0,4A$ . C)  $0,6A$ . D)  $0,8A$ .

12. Keltirilgan chizmalardan qaysi birida  $2q$  va  $q$  nuqtaviy zaryadlarning o'zaro ta'sir potensial energiyasi  $E_p$  ning ular orasidagi masofa  $r$  ga bog'liqligi to'g'ri keltirilgan?



A) 1. B) 2. C) 3. D) 4.

13. Quyidagi tasdiqlardan to'g'rilarini aniqlang.


- 1) metallar izotrop moddalar hisoblanadi;
- 2) o'ta qizigan suyuqlikning harorati qaynash haroratidan yuqori bo'ladi;
- 3) og'ir metallarning molar massasi katta bo'lgani uchun ularning solishtirma issiqlik sig'imi kichik bo'ladi;
- 4) og'ir metallarning molar massasi katta bo'lgani uchun ularning solishtirma issiqlik sig'imi katta bo'ladi;
- 5) metallar anizotrop moddalar hisoblanadi.

A) 1, 2, 3. B) 2, 3, 5.  
C) 2, 4, 5. D) 1, 4, 5.

14. Ikki protonning tezliklari teng ( $v$ ), tezliklar orasidagi burchak  $\pi$ . Bu sistema og'irlik markazining tezligi nimaga teng?  $v \ll c$ .

A) 0. B)  $v/2$ . C)  $v/4$ . D)  $v$ .

15. Quyidagi sxemada K va L qismdagi umumiy sig'imni toping.



A)  $5C$ . B)  $3C$ . C)  $2C$ . D) 0.

16. Yuzasi bir xil bo'lgan ikki parallel plastinkalar qarama-qarshi ishorali elektr zaryadlari bilan tekis zaryadlangan. Tekislikdagi zaryadning sirt zichliklari  $\sigma_1 = +1,77 \text{ nC/m}^2$  va  $\sigma_2 = -1,77 \text{ nC/m}^2$  ga teng. Tekisliklar orasidagi masofa 5 cm. Tekisliklar orasidagi potenciallar farqi ( $V$ ) nimaga teng.

A) 15. B) 20. C) 10. D) 25.

17. O'tkazgichdagi tok zichligi  $j$ , elektr maydon kuchlanganligi  $E$ . Birlik hajmdan ajralib chiqayotgan Joule issiqligining quvvati  $\omega$  nimaga teng?

A)  $j/E$ . B)  $jE$ . C)  $1/jE$ . D)  $E/j$ .


18. Akkumulyator zaryad sig'imi nimada o'lchanadi?

A) amper-volt. B) amper-C.  
C) amper-soat. D) kW-soat.


19. Harorat ortishi bilan metall o'tkazgichlarda elektr o'tkazuvchanlik .....

A) ortadi. B) kamayadi.  
C) o'zgarmaydi.  
D) avval ortib, keyin kamayadi.

20. Berilgan sxemadagi ampermetrning ko'rsatishini aniqlang (A).




- A) 5. B) 2. C) 3. D) 0,5.
21. Ferromagnetiklar uchun magnitlanish vektorining magnit maydon kuchlanganligiga bog'lanishini ko'rsating.




- A) 1. B) 2. C) 3. D) 1 va 2.
22. Amplitudasi 2,2 cm bo'lgan prujinali mayatnikda yuk muvozanat vaziyatidan boshlab siljishi uchinchi marta 1,2 cm ga teng bo'lgan vaqt ichida qanday yo'lni (cm) bosib o'tadi?  
A) 8,8. B) 7,6. C) 5,6. D) 10.
23. O'zgaruvchan tok tarmog'iga ketma-ket rezistor ( $R=10 \Omega$ ), kondensator ( $C=13 \text{ mF}$ ) va induktiv g'altak ( $L=130 \text{ H}$ ) ulangan. Tokning siklik chastotasi  $\omega=0,77 \text{ rad/s}$  bo'lgan paytdagi quvvat ko'effitsiyentini aniqlang.  
A) 0,41. B) 0. C) 0,87. D) 1.
24. Qavariq linzaning optik kuchi 5 D, buyum undan 16 cm masofada turibdi. Linza hosil qilgan tasvirdan buyumgacha bo'lgan masofani (cm) toping.  
A) 109. B) 75. B) 64. D) 81.

25. A nuqtada ko'z joylashgan bo'lsa, u qaysi nuqtalarni ko'zgu orqali ko'ra oladi?



- A) L, N. B) B, C. C) N, B. D) L, B.
26. Lazer nuri  $\pi \cdot 10^{-7} \text{ sr}$  fazoviy burchakda tarqalmoqda. Nurning quvvati 1 kW. Lazer nurining yorug'lik kuchini toping (GW/sr).  
A) 3. B) 5. C) 6. D) 8.
27. Quyidagi bandlardan to'g'rilarini tanlang:  
1) izolyatsiyalangan neytral moddada fotoeffekt yuz berganda u manfiy zaryadlanadi;  
2) izolyatsiyalangan neytral moddada fotoeffekt yuz berganda u musbat zaryadlanadi;  
3) izolyatsiyalangan neytral moddada fotoeffekt yuz berganda uning massasi kamayadi;  
4) tormozlovchi kuchlanish fotoelektronlar kinetik energiyasini kamaytiradi;  
5) manfiy zaryadlangan moddada fotoeffekt yuz berganda u zaryadini yo'qotadi.  
A) 1, 2, 3, 4. B) 2, 3, 4, 5.  
C) 1, 3, 5. D) 1-5.
28. Elementar zarralardan adronlarga mansubini ko'rsating.  
A) mezonlar va leptonlar.  
B) fotonlar va leptonlar.  
C) mezonlar va barionlar.  
D) barionlar va fotonlar.

29. Quyidagi ikkita elementar zarralar annigilyatsiyasida ikkita  $\gamma$ -kvant hosil bo'ldi. Annigilyatsiyada ishtirok etayotgan zarralar juftini ko'rsating.



- A) elektron-pozitron.  
 B) proton-neytron.  
 C) elektron-neytron.  
 D) neytron-pozitron.
30.  ${}_{92}^{235}\text{U}$  yadrosi bir marta alfa yemirilgandan keyin ikki marta betta yemirilsa qanday yadro hosil bo'ladi?  
 A)  ${}_{92}^{231}\text{U}$ . B)  ${}_{92}^{232}\text{U}$ . C)  ${}_{92}^{233}\text{U}$ . D)  ${}_{92}^{235}\text{U}$ .


### Variant – 18

1. Vertikal yuqoriga 2 s vaqt intervali bilan birday 30 m/s boshlang'ich tezlik bilan otilgan jismlarning uchrashgan momentda birinchi va ikkinchi jismlar tezliklarining yuqoriga yo'nalgan proyeksiyalarini toping (m/s).  
 A) -10; 10. B) 10; -10.  
 C) 18; -18. D) 20; -20.
2. Qayiqning dastlabki tezligi 4 m/s ga teng. Suvning qayiq harakatiga qarshilik kuchi tezlikka proporsional bo'lib, proporsionallik koeffitsiyenti 8 kg/s ga teng. Qayiq qarshilik kuchi ta'sirida 50 m yo'l bosib to'xtagan bo'lsa, uning massasi (kg) qanday?  
 A) 75. B) 25. C) 100. D) 50.
3. Zarrachaning harakat tenglamasi jadval ko'rinishida berildi. Zarraning harakatini tavsiflang?

t,s	0	1	2	3	4
x,m	6	7	8	9	10

- A) tekis harakat.  
 B) tezlanish o'zgarmas.  
 C) tezlik nolga teng.  
 D) tezlanish o'zgaruvchan.
4. Ishqalanish koeffitsiyenti 0,05 bo'lgan relsda turgan 50 t massali vagon tekis tezlanuvchan harakatlanib, 25 m ni 50 s da o'tishi uchun unga qanday kuch kerak (kN)?  $g=10$  N/kg.  
 A) 24. B) 26. C) 25. D) 30.
5. Gorizont tekislikda turgan 2 kg massali jismga tekislik sirtiga parallel yo'nalishda 5 N kuch ta'sir eta boshladi. Jismga ta'sir etuvchi to'la reaksiya kuchi bilan sirt orasidagi burchakning kotangens qiymatini toping. Jism bilan sirt orasidagi ishqalanish koeffitsiyenti 0,5 ga teng.  
 A) 0,5. B) 0,2. C) 0,25. D)  $1/\sqrt{3}$ .
6. Ikkita bir xil sharchalar bir-biriga qarab  $v$  va  $2v$  tezliklar bilan harakatlanmoqda. Ular o'zaro mutlaq elastik to'qnashsalar, to'qnashuvdan keyin ularning tezliklari qanday bo'ladi?  
 A)  $v$ ;  $2v$ . B)  $2v$ ;  $v$ . C) 0; 0. D)  $v$ ;  $v$ .
7. Massasi  $m$  ga teng bo'lgan kosmik kema yer sirtidan  $h$  balandlikda turibdi. Uning potentsial energiyasi nimaga teng? Yerning radiusi  $R$ , massasi  $M$ .  
 A)  $\gamma \cdot \frac{Mm}{R+h}$ . B)  $\gamma \cdot \frac{Mm}{h}$ .  
 C)  $-\gamma \cdot \frac{Mm}{R+h}$ . D)  $-\gamma \cdot \frac{Mm}{R}$ .
8. Tomoni  $a=1$  m bo'lgan deformatsiyalanmaydigan muntazam uchburchakli plastinka O nuqtadan o'tuvchi o'q atrofida aylanishi mumkin.

Plastinkaning turli nuqtalariga plastinka tekisligida yotuvchi kuchlar ta'sir etmoqda:  $F_1=2\sqrt{3}$  N,  $F_2=\sqrt{3}$  N,  $F_3=2$  N. Aylanish o'qiga nisbatan umumiy kuch momentini (N·m) aniqlang.



A) 0,5. B) 2. C) 1,4. D) 1.

9. Yer sirtidagi jism  $R/10$  balandlikka ko'tarilganda bajarilgan ishni toping.  $R$ -Yer radiusi,  $g$ -yer sirtidagi erkin tushish tezlanishi.

A)  $mgR/10$ . B)  $10mgR$ .  
C)  $mgR/11$ . D)  $mgR/9$ .

10. Ko'p atomli gaz molekulalarining erkinlik darajasi  $i = 6$ . O'zgarmas hajmda shu gazning molyar issiqlik sig'imini aniqlang?

A)  $4R$ . B)  $3R$ . C)  $R$ . D)  $1,5R$ .


11. Quyidagi tasdiqlardan to'g'rilarini aniqlang.

- 1) o'ta sovugan suyuqliklarda kristallanish markazlari mavjud emas;
- 2) o'ta qizigan suyuqliklarda bug' hosil markazlari mavjud emas;
- 3) sirt taranglik kuchi suyuqlik erkin sirti uzunligiga bog'liq;
- 4) nur sindirish ko'rsatkichlari turli yo'nalishlarda turlicha bo'lishi modda anizotropiyasi deyiladi;
- 5) nisbiy namlikning eng yuqori chegarasi 100 % ga teng.

A) 1, 3, 5. B) 2,4,5. C) 1-5. D) 1-4.


12. Bir atomli ideal gaz dastlab adiabatik, so'ngra izobarik siqildi. Gazning

boshlang'ich temperaturasi bilan oxirgi temperaturasi teng. Gaz izobarik siqilishda A ish bajarilsa, adiabatik siqilishda gaz molekulalari qancha ish bajargan?



A) -A. B) -2,5A. C) -0,6 A. D) -1,5A.

13. Keltirilgan chizmalardan qaysi birida  $2q$  va  $-q$  nuqtaviy zaryadlarning o'zaro ta'sir potensial energiyasi  $E_p$  ning ular orasidagi masofa  $r$  ga bog'liqligi to'g'ri keltirilgan?



A) 1. B) 2. C) 3. D) 4.

14. Ikkita  $\alpha$ -zarraning tezliklari  $v$  va  $3v$ , tezliklar orasidagi burchak  $\pi$ . Bu sistema og'irlik markazining tezligi nimaga teng?  $v \ll c$ .


A) 0. B)  $v/2$ . C)  $v/4$ . D)  $v$ .

15. Bir xil  $8$  nC dan elektr zaryadiga ega bo'lgan, radiuslari  $3$  cm va  $5$  cm ga teng bo'lgan metall sharlar bir-biriga tekkizilsa, ularning o'zaro elektr ta'sir potensial energiyasi qanday o'zgaradi?

A)  $17/16$  marta ortadi.  
B)  $16/15$  marta kamayadi.  
C)  $2,25$  marta ortadi.  
D) o'zgarmaydi.

16. Proton elektr maydonida  $6,4 \cdot 10^{11} \text{ m/s}^2$  tezlanish bilan harakatlanishi uchun elektr maydon kuchlanganligi qanday (kV/m) bo'lishi kerak?  
A) 6,64. B) 3,32. C) 13,28. D) 11,72.

17. Rezistorning Volt-Amper xarakteristikasidan foydalanib uning elektr qarshiligini aniqlang ( $\Omega$ )?



A) 1. B) 1,7. C) 1,4. D) 0,58.

18. O'tkazgich qarshiligi  $10 \Omega$ . Tok kuchi  $I = 5t$  (A) qonun bo'yicha ortmoqda. Datslabki 2 s da qancha energiya (J) ajralib chiqadi?  
A) 633. B) 605. C) 710. D) 667.


19. 1 A·h necha kulonga teng?  
A) 2000 C. B) 3600 C.  
C) 1800 C. D) 1000 C.

20. Quyosh qanday agregat holatdagi moddadan tarkib topgan?  
A) qattiq. B) suyuq.  
C) plazma. D) gaz.

21. Amplitudasi 2,2 cm bo'lgan prujinali mayatnikda yuk muvozanat vaziyatidan boshlab siljishi ikkinchi marta 1,2 cm ga teng bo'lgan vaqt ichida qanday yo'lni (cm) bosib o'tadi?  
A) 8,8. B) 7,6. C) 3,2. D) 10.

22. O'zgaruvchan tok tarmog'iga  $20 \Omega$  aktiv va  $20 \Omega$  induktiv qarshiliklar ketma-ket ulandi. Tok kuchi va kuchlanish orasidagi fazalar farqini toping (rad).  
A)  $\pi/4$ . B)  $\pi$ . C)  $\pi/2$ . D)  $\pi/3$ .

23. Ferromagnitlar uchun keltirilgan grafikda magnitlanish vektorining o'zgaray qolishi nimani anglatadi?



A) magnit to'yinishni.  
B) hech nimani.  
C) magnit singdiruvchanlik o'zgaray qolishini.  
D) A va C.

24. Botiq linzaning optik kuchi 5 D, buyum undan 15 cm masofada turibdi. Linza hosil qilgan tasvirdan buyumgacha bo'lgan masofani (cm) toping.  
A) 45/7. B) 75. C) 64. D) 81.

25. Quyidagi jumlaning davom ettiring: Yorug'lik oqimi bu...  
A) vaqt birligi ichida biror yuzaga tushayotgan yorug'lik energiyasi.  
B) birlik fazoviy burchak ostida tarqalayotgan yorug'lik oqimi.  
C) tekis yoritilgan sirtning birlik yuzasiga tushayotgan yorug'lik oqimi.  
D) yorug'lik manbaining yuza birligidan barcha yo'nalishlar bo'yicha nurlatayotgan yorug'lik oqimi.

26. Lazer nuri impulsining energiyasi 100 J, davomiyligi 1 ps. Nur  $10^{-6} \text{ sr}$  fazoviy burchakda tarqalmoqda. Lazer nurining o'rtacha yorug'lik kuchini aniqlang (cd).  
A)  $10^{20}$ . B)  $10^{10}$ . C)  $10^{21}$ . D)  $10^{18}$ .

27. Quyidagi bandlardan to'g'rilarini tanlang:

## Variant – 19

- 1) Kirxgof qonuniga ko'ra modda qanday to'liqin uzunlikdagi nurni yutsa, huddi shunday to'liqin uzunlikdagi nur chiqaradi;
  - 2) ichki fotoeffektda atomdan chiqqan elektron moddaning tarkibiy qismiga ta'sir ko'rsatmaydi;
  - 3) fotoeffekt yuz berishining zaruriy sharti:  $\lambda < \frac{hc}{A}$ , A-chiqish ishi;
  - 4) Stefan-Boltsman qonuniga ko'ra absolut qora jism nurlanishi absolut haroratning 4-darajasiga to'g'ri proporsional;
  - 5) metallarda faqat tashqi fotoeffekt yuz beradi.
- A) 1, 2, 3, 4. B) 2, 3, 4, 5.  
C) 1, 3, 5. D) 1-5.

28. Antizarrasi yo'q bo'lgan zarralarni ko'rsating.
- A)  $\gamma$ -foton,  $K_1^0$ -mezon,  $K_2^0$ -mezon.  
B)  $\gamma$ -foton,  $\pi^0$ -mezon,  $K_1^0$ -mezon, elektron.  
C) myuon,  $\pi^0$ -mezon,  $K_1^0$ -mezon,  $K_2^0$ -mezon.  
D)  $\gamma$ -foton,  $\pi^0$ -mezon,  $K_1^0$ -mezon,  $K_2^0$ -mezon.
29. Vodorod atomida to'rtinchi energetik sathdan birinchi energetik sathga o'tgan elektron qanday energiyali (eV) foton chiqaradi? Birinchi sathda elektron energiyasi -13,6 eV, to'rtinchi sathdagi elektron energiyasi esa -0,85 eV ga teng.
- A) 12,75. B) -12,75. C) 10,3. D) -10,3.
30. Barcha fotonlarning impulsi ..... ga to'g'ri proporsional.
- A)  $\hbar/2\pi$ . B)  $\hbar/\pi$ . C)  $2\hbar/\pi$ . D)  $2\pi\hbar$ .

1. Zarrachaning harakat tenglamasi jadval ko'rinishida berildi. Zarraning harakatini tavsiflang?


t,s	0	2	4	6	8
x,m	11	13	17	23	31

- A) tekis tezlánuvchan harakat.  
B) tezlanish ortuvchi.  
C) tezlanish nolga teng.  
D) tekis harakat.
2. Elastik sharcha H balandlikdan gorizonta yo'nalishda  $v$  tezlik bilan otildi. Sharchaning yer bilan birinchi va ikkinchi marta to'qnashuvlari orasidagi masofani toping.
- A)  $2v\sqrt{\frac{H}{g}}$ . B)  $v\sqrt{\frac{2H}{g}}$ .  
C)  $2v\sqrt{\frac{2H}{g}}$ . D)  $3v\sqrt{\frac{2H}{g}}$ .
3. Jismning boshlang'ich tezligi 10 m/s ga teng. Jismga faqat muhitning qarshilik kuchi ta'sir qiladi deb hisoblab, uning tezligi ikki marta kamaygunga qadar qancha masofani o'tishini aniqlang (m). Qarshilik kuchi tezlikka proporsional. Qarshilik koeffitsiyenti 2 kg/s ga teng. Jism massasi 4 kg.
- A) 15. B) 10. C) 20. D) 30.
4. Idishda suv va suv bilan aralashmaydigan, zichligi  $700 \text{ kg/m}^3$  bo'lgan suyuqlik bor. Ular chegarasida zichligi  $800 \text{ kg/m}^3$  bo'lgan buyum to'la botgan holda suzib yuribdi. Buyumning qanday ulushi suvga kirgan holda suzib yuradi?
- A)  $2/3$ . B)  $1/3$ . C)  $2/5$ . D)  $0,6$
5. Gorizonta tekislikda turgan 4 kg massali jismga tekislik sirtiga parallel

yo'nalishda 25 N kuch ta'sir eta boshladi. Jismga ta'sir etuvchi to'la reaksiya kuchi bilan sirt orasidagi burchakning kotangens qiymatini toping. Jism bilan sirt orasidagi ishqalanish koefitsiyenti 0,5 ga teng.  
A) 0,25. B) 0,2. C) 0,5. D)  $1/\sqrt{3}$ .

6. Tinch turgan bomba portlab  $m$  va  $2m$  massali ikki bo'lakka bo'lindi. Bomba bo'laklarining impulslarini solishtiring.  
A)  $p_1 = p_2$ . B)  $p_1 = 2p_2$ .  
C)  $2p_1 = p_2$ . D)  $p_1 = p_2/3$ .

7. Bir jinsli kvadrat plastinkaning tomonlari 1 m, massasi 2 kg. Kvadratning uchlariga  $m_1, m_2, m_3, m_4$  nuqtaviy jismlar joylashtirilgan.  $m_1=8$  kg,  $m_2=m_3=m_4=0$  holda sistema og'irlik markazining X koordinatasi (cm) aniqlansin. Kvadratning markazi koordinatalar boshida joylashgan.



A) -40. B) 32. C) -32. D) 1.

8. Yuqoriga  $4 \text{ m/s}^2$  tezlanish bilan tekis tezlanuvchan harakatlanayotgan liftda suvga qisman botgan kapilyar nay joylashgan. Naydagi suvning ko'tarilish balandligini toping (mm). Nay radiusi 2 mm, suvning sirt taranglik koefitsiyenti  $73 \text{ mN/m}$ .  $g=10 \text{ m/s}^2$ .  
A) 5,2. B) 9,125. C) 4,56. D) 12,16.


9. Yer sirtida turgan jism Yerni butunlay tark etishi uchun qanday minimal kinetik energiyaga ega bo'lishi kerak?

R-Yer radiusi, g-yer sirtidagi erkin tushish tezlanishi.

A)  $mgR$ . B)  $mgR/2$ .  
C)  $2mgR$ . D)  $mgR/1,1$ .

10. Azot molekularining ilgari lanma harakat ( $28 \text{ g/mol}$ ) o'rtacha kvadratik tezligi  $200 \text{ m/s}$ . Gazning temperaturasi (K) qanday?  
A) 45. B) 26. C) 16,6. D) 22,6.

11. Bir atomli ideal gaz dastlab adiabatik, so'ngra izobarik siqildi. Gazning boshlang'ich temperaturasi bilan oxirgi temperaturasi teng. Gaz to'liq siqilishda A ish bajarilsa, adiabatik siqilishda gaz molekulari qancha ish bajargan?



A) -A. B)  $-0,4A$ . C)  $-0,6A$ . D)  $-0,8A$ .

12. Moddiy zarraning zaryadi  $-5e$ . Zarra fotoeffekt hodisasi tufayli ikki elektronni yo'qotsa, zaryadi qanday bo'ladi?  $e$ -elementar zaryad.  
A)  $3e$ . B)  $8e$ . C)  $7e$ . D)  $10e$ .

13. Protonning massasi  $m_p$ , tezligi  $3v$ ,  $\alpha$ -zarra tezligi esa  $v$ . Tezliklar o'zaro tik yo'nalgan. Bu sistemaning to'liq impulsi nimaga teng?  $m_\alpha = 4m_p$ ,  $v \ll c$ .  
A)  $5 \cdot m_p \cdot v$ . B)  $\sqrt{3} \cdot m_p \cdot v$ .  
C)  $\sqrt{1,73} \cdot m_p \cdot v$ . D)  $2 \cdot m_p \cdot v$ .


14. Protonning tezligi  $3v$ ,  $\alpha$ -zarra tezligi  $v$ . Tezliklar bir tomonga yo'nalgan. Bu sistema og'irlik markazining tezligi nimaga teng?  $m_\alpha = 4m_p$ ,  $v \ll c$ .

- A)  $7v/5$ . B)  $2v/3$ .  
C)  $\sqrt{1,73v}$ . D)  $v/5$ .

15. Radiusi 9 cm bo'lgan shar dastlab  $2 \mu\text{C}$  zaryadiga ega. Unga yana  $1 \mu\text{C}$  zaryad berish uchun qanday ish bajarish kerak (J)?

- A) 0,25. B) 0,5. C) 1. D) 2.

16. Rasmdagi sxemada umumiy elektr sig'imni aniqlang.



- A)  $2C$ . B)  $4C$ . C)  $C$ . D)  $3C$ .

17. O'tkazgichdagi tok zichligi  $2 \text{ A/m}^2$ , elektr maydon kuchlanganligi  $6 \mu\text{V/m}$ . O'tkazgichning solishtirma qarshiligi ( $\mu\Omega \cdot m$ ) aniqlansin.

- A) 18. B) 12. C) 6. D) 3.

18. O'tkazgich qarshiligi  $12 \Omega$ . Tok kuchi  $I = 6t$  (A) qonun bo'yicha ortmoqda. Datslabki 5 s da qancha energiya (J) ajralib chiqadi?

- A) 17750. B) 18000.  
C) 18200. D) 18350.

19. p-tip yarimo'tkazgichli material qanday aralashma bilan hosil qilinadi?


- A) donor. B) akseptor.  
C) oddiy eritish yo'li bilan. D) TJY.

20. Bio-Savar-Laplas qonuni nimani hisoblashga yordam beradi?

- A) tokli o'tkazgichdan ajralib chiqqan issiqlikni.  
B) elektr maydonni.  
C) tokli o'tkazgichning magnit maydonini.

D) yadro kuchlarini.

21. Quyidagi yarimo'tkazgich tranzistor tipini aniqlang.



- A) n-p-n. B) p-n-p.  
C) p-p-n. D) n-n-p.

22. Tok zanjiriga ketma-ket rezistor ( $R=20 \Omega$ ), kondensator ( $C=13 \text{ mF}$ ) va induktiv g'altak ( $L=130 \text{ H}$ ) ulangan. Rezonans ro'y berganda o'zgaruvchan tok kuchining amplituda qiymati 13 A deb hisoblab shu paytda kondensatordagi kuchlanishni (V) aniqlang.

- A) 2600. B) 1300. C) 0. D) 260.

23. Aktiv qarshiligi  $40 \Omega$  bo'lgan rezistor va induktiv qarshiligi  $30 \Omega$  bo'lgan g'altak ketma-ket ulangan.

O'zgaruvchan tokning quvvat koeffitsiyentini toping.

- A) 0,8. B) 0. C) 0,6. D) 1.

24. Lazer kuchaytirgich optik elementining uzunligi 8 cm ga teng. Uning uchlari ko'zguga aylantirilgan bo'lib, nur uning ichida borib keladi. Agar bu muhitning nur sindirish ko'rsatkichi 1,5 bo'lsa, nur 0,1 s davomida kuchaytirgich bo'ylab qancha yo'l o'tadi (m)?

- A)  $2 \cdot 10^4$ . B)  $2 \cdot 10^8$ .  
C)  $2 \cdot 10^7$ . D)  $3 \cdot 10^8$ .

25. Quyidagi jumlaning davom ettiring: Yoritilganlik bu....

- A) vaqt birligi ichida biror yuzaga tushayotgan yorug'lik energiyasi.



- B) birlik fazoviy burchak ostida tarqalayotgan yorug'lik oqimi.  
 C) tekis yoritilgan sirtning birlik yuzasiga tik tushayotgan yorug'lik oqimi.  
 D) yorug'lik manbaining yuza birligidan barcha yo'nalishlar bo'yicha nurlatayotgan yorug'lik oqimi.

26. Lazer nuri impulsining energiyasi 8 J, davomiyligi 0,02 ns. Nur  $10^{-6}$  sr fazoviy burchakda tarqalmoqda. Nur kesimi  $0,5 \text{ cm}^2$ . Lazer nurining ya'ni nurlanish oqimining zichligini aniqlang ( $\text{W/m}^2$ ).

- A)  $4 \cdot 10^{15}$ . B)  $6 \cdot 10^{15}$ .  
 C)  $8 \cdot 10^{15}$ . D)  $8 \cdot 10^{14}$ .

27. Quyidagi bandlardan to'g'rilarini tanlang:

- 1) har qanday mikrozarra to'liq xususiyatiga ega;
  - 2) yorug'lik nuri zarralari impulsiga ega bo'lgani uchun tushayotgan sirtga bosim beradi;
  - 3) yorug'lik bosimi va fotoeffekt hodisasi yorug'likning to'liq nazariyasiga ko'ra tushuntiriladi.
  - 4) yorug'lik oqimi va impulsi orasidagi bog'lanish  $\Phi = p \cdot c$  dan iborat;
  - 5) yorug'lik bosimi va fotoeffekt hodisasi yorug'likning kvant nazariyasiga ko'ra tushuntiriladi.
- A) 1, 2, 3, 4. B) 1, 2, 4, 5.  
 C) 1, 3, 5. D) 1-5.

28. Antizarrasi yo'q bo'lgan zarralar qanday zarralar deb ataladi?

- A) *absolut neytral*. B) *yengil*.  
 C) *og'ir*. D) *bir zaryadli*.

29. O'rtacha yashash vaqti 215 yil bo'lgan birinchi radioaktiv pereparatning aktivligi 80 atom/s. O'rtacha yashash

vaqti 400 yil bo'lgan ikkinchi radioaktiv pereparatning 960 ta atomi 0,4 minutda yemrildi. Birinchi pereparatning aktivligi ikkinchi pereparat aktivligidan necha marta farq qiladi?

- A) 2. B) 1,7. C) 3,14. D) 3.


30. Yadroda nuklonlar soni 204 ga teng.

Har bir nuklonning erkin holatdagi energiyasi 940 MeV. Har biriga to'g'ri keladigan bog'lanish energiyasi 8 MeV. Yadroning to'liq energiyasini hisoblang (GeV).

- A) 180. B) 210. C) 190. D) 200.

### Variant – 20

1. Rasmda moddiy nuqta tezligining vaqtga bog'liqlik grafigi tasvirlangan. Vaqt  $t=7,3$  s bo'lganda tezlik (m/s) qancha bo'lgan?



- A) 9,4. B) 10,1. C) 9,8. D) 9,1.

2. Oyda jism tik erkin tusha boshladi.

Jism tezligi 2 m/s ga yetganda qancha masofa o'tgan bo'ladi (m)?  $g=1,67 \text{ m/s}^2$ .

- A) 8,35. B) 1,2. C) 1. D) 12.


3. Massalari va boshlang'ich tezliklari bir

xil, lekin shakli har xil bo'lgan qayiqning harakatiga suvning qarshilik kuchi tezlikka proporsional bo'lib, proporsionallik koeffitsiyentlari nisbati  $k_1/k_2=2$ . Ular to'xtaguncha bosib o'tadigan yo'llarining nisbati  $S_2/S_1$  nimaga teng?


- A) 2. B) 4. C) 3. D) 6.

4. Yuqoriga otilgan jismga 5 N og'irlik kuchi ta'sir qilsa, yerga qanday kuch ta'sir etadi (N)?  
A) 5. B) 10. C) 0. D) 7,5.
5. Gorizontaal tekislikda turgan 4 kg massali jismga tekislik sirtiga parallel yo'nalishda 8 N kuch ta'sir eta boshladi. Jismga ta'sir etuvchi to'la reaksiya kuchi bilan sirt orasidagi burchakning kotangens qiymatini toping. Jism bilan sirt orasidagi ishqalanish koeffitsiyenti 0,5 ga teng.  
A) 0,25. B) 0,5. C) 0,2. D)  $1/\sqrt{3}$ .
6. Tinch turgan bomba portlab  $m$  va  $2m$  massali ikki bo'lakka bo'lindi. Bomba bo'laklarining kinetik energiyalarini solishtiring.  
A)  $E_1 = E_2$ . B)  $E_1 = 2E_2$ .  
C)  $2E_1 = E_2$ . D)  $E_1 = E_2/3$ .
7. Yuk mashinasi yo'lning burilish qismida  $3 \text{ m/s}^2$  gorizontaal tezlanish bilan harakatlanmoqda. Mashina olib ketayotgan idishdagi suv sirti bunda statsionar og'ma holatga kelgan. Suv sirtidan 10 cm masofada suv ichida joylashgan nuqtadagi gidrostatik bosim (kPa) nimaga teng?  $g=10 \text{ m/s}^2$ .  
A)  $\sqrt{1,33}$ . B) 1. C)  $\sqrt{1,11}$ . D)  $\sqrt{1,09}$ .
8. Pastga  $2 \text{ m/s}^2$  tezlanish bilan tekis tezlanuvchan harakatlanayotgan liftga suvga qisman botgan kapillyar nay joylashgan. Naydagi suvning ko'tarilish balandligini toping (mm). Nay radiusi 2 mm, suvning sirt taranglik koeffitsiyenti 73 mN/m.  $g=10 \text{ m/s}^2$ .  
A) 5,2. B) 9,125. C) 4,56. D) 12,16.
9. Yer sirtidan  $0,1R$  balandlikda turgan jism Yerni butunlay tark etishi uchun qanday minimal kinetik energiyaga ega bo'lishi kerak?  $R$ -Yer radiusi,  $g$ -yer sirtidagi erkin tushish tezlanishi.  
A)  $mgR$ . B)  $mgR/2$ .  
C)  $2mgR$ . D)  $mgR/1,1$ .
10. Normal sharoitda ftor gazining (38 g/mol) zichligi  $\text{g/m}^3$  qanday?  
 $V_{n.sh}=22,4$  litr/mol.  
A) 1750. B) 1670. C) 1800. D) 1700.
11. Temperaturasi 30 K molekullar soni  $6 \cdot 10^{22}$  ta bo'lgan kislorod gazining hajmi  $V_1=0,1 \text{ m}^3$  dan  $V_2=0,272 \text{ m}^3$  gacha izotermik oshdi. Bunda gaz molekullari qancha ish bajargan (J)?  
A) 24,84. B) 20,21.  
C) 18,74. D) 15,78.
12. Tomchining zaryadi  $-6e$ . Zarra fotoeffekt hodisasi tufayli ikki elektronni yo'qotsa, zaryadi qanday bo'ladi?  $e$ -elementar zaryad.  
A)  $-4e$ . B)  $8e$ . C)  $-3e$ . D)  $5e$ .
13. Protonning massasi  $m_p$ , tezligi  $v$ ,  $\alpha$ -zarra tezligi esa  $v/4$ . Tezliklar o'zaro  $60^\circ$  burchak ostida yo'nalgan. Bu sistemaning to'liq impulsi nimaga teng?  $m_\alpha = 4m_p$ ,  $v \ll c$ .  
A)  $5 \cdot m_p \cdot v$ . B)  $\sqrt{3} \cdot m_p \cdot v$ .  
C)  $\sqrt{1,73} \cdot m_p \cdot v$ . D)  $2 \cdot m_p \cdot v$ .
14. Protonning tezligi  $v$ ,  $\alpha$ -zarra tezligi ham  $v$ . Tezliklar bir tomonga yo'nalgan. Bu sistema og'irlik markazining tezligi nimaga teng?  
 $m_\alpha = 4m_p$ ,  $v \ll c$ .  
A)  $2v$ . B)  $\sqrt{3}v$ . C)  $\sqrt{1,73}v$ . D)  $v$ .
15. Radiusi 9 cm bo'lgan shar dastlab  $2 \mu\text{C}$  zaryadiga ega. Unga yana  $2 \mu\text{C}$  zaryad berish uchun qanday ish bajarish kerak (J)?  
A) 0,6. B) 1,2. C) 2,4. D) 3.


16. Rasmdagi sxemada umumiy elektr sig'imni aniqlang.



- A)  $2C$ . B)  $4C$ . C)  $C$ . D)  $3C$ .
17. Elektr zanjirning tarmoqlanmagan qismidagi tok kuchi 6 A bo'lsa, Ampermetrning ko'rsatishini aniqlang?



- A) 6 A. B) 4 A. C) 2 A. D) 3 A.
18. Rasmda keltirilgan parallelepiped shaklidagi mis bo'lagining  $2 \times 4 \text{ cm}^2$  yuzali yoqlariga elektrodlar ulansa, ular orasidagi qarshilik qanday bo'ladi?  $\rho = 1,68 \cdot 10^{-8} \Omega \cdot m$ .



- A)  $4,2 \cdot 10^{-6}$ . B)  $8,4 \cdot 10^{-8}$ .  
C)  $2,1 \cdot 10^{-6}$ . D)  $3,36 \cdot 10^{-7}$ .
19. Gazlar uchun  $\frac{mv^2}{2} = eE\lambda$  ifoda o'rinli bo'ladi. Bunda  $\lambda$  nimani bildiradi?  
A) to'lqin uzunlik.  
B) solishtirma erish issiqligi.  
C) elektron erkin yugurish yo'li.  
D) solishtirma elektr o'tkazuvchanlik.
20. n-tip yarimo'tkazgichli material qanday aralashma bilan hosil qilinadi?


- A) donor. B) akseptor.  
C) oddiy eritish yo'li bilan. D) T.J.Y.

21. Diamagnit trubkadan tosh va magnit tashlandi. Qaysi biri oldin tushadi?  
A) magnit. B) tosh.  
C) ikkalasi bir xil. D) aniq emas.
22. Tok zanjiriga ketma-ket rezistor ( $R=20 \Omega$ ), kondensator ( $C=13 \text{ mF}$ ) va induktiv g'altak ( $L=130 \text{ H}$ ) ulangan. Rezonans ro'y berganda o'zgaruvchan kuchlanishning amplituda qiymati 40 V deb hisoblab shu paytda aktiv qarshilikdagi tok kuchi amplitudasini (V) aniqlang.  
A) 1. B) 13. C) 2. D) 0.
23. Induktiv qarshiligi  $70 \Omega$  bo'lgan g'altak va sig'im qarshiligi  $50 \Omega$  bo'lgan kondensator ketma-ket ulangan. O'zgaruvchan tokning quvvat koeffitsiyentini toping.  
A) 0. B) 1. C) 0,6. D) 0,8.
24. Lazer kuchaytirgich optik elementining uzunligi 20 cm ga teng. Uning uchlari ko'zguga aylantirilgan bo'lib, nur uning ichida borib keladi. Agar bu muhitning nur sindirish ko'rsatkichi 1,5 bo'lsa, nur 0,5 ms davomida kuchaytirgich bo'ylab necha marta borib keladi?  
A)  $3 \cdot 10^5$ . B)  $2,5 \cdot 10^5$ .  
C)  $2,5 \cdot 10^8$ . D)  $2 \cdot 10^4$ .
25. Quyidagi jumlaning davom ettiring: Yorug'lik kuchi bu....  
A) vaqt birligi ichida biror yuzaga tushayotgan yorug'lik energiyasi.  
B) birlik fazoviy burchakda tarqalayotgan yorug'lik oqimi.  
C) tekis yoritilgan sirtning birlik yuzasiga tushayotgan yorug'lik oqimi.  
D) yorug'lik manbaining yuza birligidan barcha yo'nalishlar bo'yicha

nurlatayotgan yorug'lik oqimi.

## Variant – 21


26. Rasmda qandaydir modda atomlar sonining vaqtga bog'liqlik grafigi keltirilgan. Shu grafikdan foydalanib, 8 sutkadan so'ng qancha atom qolishini aniqlang.



- A)  $10^{20}$ . B)  $10^{19}$ . C)  $2 \cdot 10^{20}$ . D)  $10^{22}$ .
27. Lazer nuridagi fotonlarning qanday parametrlari o'zaro mos kelmaydi?  
A) harakat yo'nalishi. B) chastotasi.  
C) fazalari. D) spinlari.
28. Lazer nuri bitta impulsining energiyasi 15 J ga teng. Zarqog'ozga tik tushgan lazer nuri undan to'liq akslanadi. Agar qog'oz massasi 1,6 mg bo'lsa, bitta impuls ta'sirida qog'ozning oladigan tezligini aniqlang (m/s).  
A) 0,12. B) 0,03. C) 0,06. D) 0,04.
29. Atomda elektron orbita (energetik sath) tartib raqamini ifodalovchi sonlar?  
A) orital kvant sonlar.  
B) spin kvant sonlar.  
C) bosh kvant sonlar.  
D) magnit kvant sonlar.
30. Yadroda nuklonlar soni 204 ga teng. Har bir nuklonning erkin holatdagi energiyasi 940 MeV. Har biriga to'g'ri keladigan bog'lanish energiyasi 8 MeV. Yadroning to'liq bog'lanish energiyasini hisoblang (GeV).  
A) 1,85. B) 2,1. C) 1,63. D) 2.
1. Qanday balandlikdan (m) 10 m/s boshlang'ich tezlik bilan tik pastga otilgan jism oxirgi sekundda 35 m masofani o'tadi?  
A) 35. B) 25. C) 50. D) 75.
2. Jism koordinatasi A (1;2;3) bo'lgan nuqtadan koordinatasi B (0;0;0) bo'lgan nuqtaga 6 s davomida, undan keyin esa C (13;5;7) nuqtaga 7 s davomida ko'chdi. Jismning o'rtacha ko'chish tezligi (m/s) qanday?  
(Koordinatalar sistemasida oraliqlar metrlarda).  
A) 1. B) 2. C) 3. D) 4.
3. Jismning boshlang'ich tezligi 10 m/s ga teng. Jismga faqat muhitning qarshilik kuchi ta'sir qiladi deb hisoblab, uning 8 m masofani o'tgan paytdagi tezligini toping (m/s). Qarshilik kuchi tezlikka proporsional. Qarshilik koeffitsiyenti 2 kg/s ga teng. Jism massasi 4 kg.  
A) 7. B) 8. C) 5. D) 6.
4. Oydagi ikkinchi kosmik tezlikni toping (km/s).  $g_{oy}=1,6 \text{ m/s}^2$ ,  $R=1350 \text{ km}$ .  
A) 2,1. B) 2,5. C) 3. D) 2,7.
5. Jism gorizont bilan  $30^\circ$  burchak tashkil qiluvchi qiya tekislikda turibdi. Jismga ta'sir etuvchi to'la reaksiya kuchi bilan qiya tekislik sirti orasidagi burchakning kotangens qiymatini toping. Jism bilan sirt orasidagi ishqalanish koeffitsiyenti  $\mu > 1,5 \cdot \text{tg}\alpha$  ga teng.  
A) 0,25. B) 0,2. C) 0,5. D)  $1/\sqrt{3}$ .
6. Tinch turgan bomba portlab m va 2m massali ikki bo'lakka bo'lindi. Bomba bo'laklarining umumiy impulsini toping.  
A)  $p = 3mv$ . B)  $p = 2mv$ .

C)  $p = 0$ . D)  $p = mv$ .

7. Bir jinsli kvadrat plastinkaning tomonlari 1 m, massasi 2 kg. Kvadratning uchlariga  $m_1, m_2, m_3, m_4$  nuqtaviy jismlar joylashtirilgan.  $m_1=8$  kg,  $m_2=10$  kg,  $m_3=m_4=0$  holda sistema og'irlik markazining X koordinatasi (cm) aniqlansin. Kvadratning markazi koordinatalar boshida joylashgan.




A) -4. B) 3. C) -5. D) 5.


8. Yuqoriga  $6 \text{ m/s}^2$  tezlanish bilan tekis tezlanuvchan harakatlanayotgan liftda suvga qisman botgan ikki paralell plastinka joylashgan. Plastinkalar orasidagi suvning ko'tarilish balandligini toping (mm). Plastinkalar orasidagi masofa 2 mm, suvning sirt taranglik koeffitsiyenti  $73 \text{ mN/m}$ .  $g=10 \text{ m/s}^2$ .  
A) 5,2. B) 9,125. C) 4,56. D) 12,16.
9. 20 cm uzunlikdagi sterjenning bir uchi vertikal o'qqa mahkamlangan. Sterjenning ikkinchi uchiga esa sterjenga perpendikular va gorizontaal yo'nalgan 40 N kuch ta'sir etmoqda. Sterjen  $5^\circ$  burchakka burulishida qanday ish bajariladi (mJ)?  $\pi = 3$ .  
A) 667. B) 745. C) 900. D) 817.
10. Normal sharoitda geliy gazining (4 g/mol) zichligi  $\text{g/m}^3$  qanday?  
 $V_{n.sh}=22,4$  litr/mol.  
A) 150. B) 167. C) 190. D) 179.

11. Temperaturasi 300 K molekular soni  $8 \cdot 10^{21}$  ta bo'lgan kislorod gazining hajmi  $V_1=0,1 \text{ m}^3$  dan  $V_2$  gacha izotermik oshdi. Bunda gazga berilgan issiqlik miqdori 66,24 J.  $V_2$  ning qiymatini toping (l)?  
A) 738. B) 700. C) 710. D) 600.
12. Ikkinchisining radiusi birinchisidan ikki marta katta bo'lgan metall sharchalarning har birida  $5e$  dan zaryad miqdori bor. Sharchalar bir-biriga tekizilib, dastlabki masofaga qaytarilsa, elektronlar sharchalarda qanday taqsimlanadi? e-elementar zaryad.  
A) 3e; 7e. B) 5e; 5e.  
C) 2e; 8e. D) 4e; 6e.
13.  $\alpha$ -zarraning dastlabki tezligi  $v$  ( $v \ll c$ ).  $\alpha$ -zarra uzoq masofadan dastlab tinch turgan protonga yaqinlashmoqda.  $\alpha$ -zarraning tezligi  $0,95v$  bo'lgan paytda protonning tezligi qanday bo'ladi?  $m_\alpha = 4m_p$ .  
A)  $0,1v$ . B)  $0,2v$ . C)  $0,4v$ . D)  $0,3v$ .
14. Protonning tezligi  $0,5v$ ,  $\alpha$ -zarra tezligi  $v$ . Tezliklar qarama-qarshi yo'nalgan. Bu sistema og'irlik markazining tezligi nimaga teng?  $m_\alpha = 4m_p$ ,  $v \ll c$ .  
A)  $0,7v$ . B)  $3v/5$ . C)  $4,5v$ . D)  $1,5v$ .
15. Kuchlanganlik vektori gorizontaal yo'nalgan, moduli  $1 \text{ kV/cm}$  ga teng bo'lgan bir jinsli elektr maydonida 1 m uzunlikdagi vaznsiz, cho'zilmaydigan ipga elektr zaryadi  $1 \mu\text{C}$ , massasi 10 g metall sharcha osib qo'yilgan. Agar elektr maydoni keskin yo'qolsa, sharcha qanday maksimal kinetik energiyaga ega bo'ladi (mJ)?  
A) 30. B) 40. C) 25. D) 3.

16. Rasmdagi sxemada umumiy elektr sig'imi aniqlang.




- A)  $2C/3$ . B)  $4C$ . C)  $4C/3$ . D)  $3C/4$ .
17. Elektr zanjirda reostat jilgichi chapga surilsa, ampermetr va voltmetrning ko'rsatishi qanday o'zgaradi? Amermetr va voltmetr lar real.



- A) ikkalasiniki ham kamayadi.  
 B) ampermetrniki ortadi, voltmetrniki kamayadi.  
 C) ikkalasiniki ham ortadi.  
 D) amermetrniki kamayadi, voltmetrniki ortadi.
18. Elektrodlar parallelepiped shaklidagi metall bo'lagining avval  $a \cdot b$  yuzali va keyin  $a \cdot c$  yuzali yoqlariga ulansa, uning qarshiligi qanday o'zgaradi? Bunda  $a$ ,  $b$  va  $c$ -parallelepiped qirralari va  $a > b > c$ .
- A)  $(\frac{b}{c})^2$ . B)  $(\frac{a}{b})^2$ . C)  $(\frac{a}{c})^2$ .  
 D) o'zgarmaydi.
19. Elektr tokini o'tkazuvchi suyuqliklar..... deb ataladi.  
 A) metall. B) yarimo'tkazgich.  
 C) dielektrik. D) elektrolit.
20. Induksiyasi 1 T bo'lgan bir jinsli magnit maydon energiya zichligini toping ( $J/m^3$ ).

- A)  $4 \cdot 10^5$ . B)  $4 \cdot 10^7$ .  
 C)  $2 \cdot 10^5$ . D)  $2 \cdot 10^7$ .

21. Quyidagi yarimo'tkazgich tranzistor tipini aniqlang.



- A)  $n-p-n$ . B)  $p-n-p$ .  
 C)  $p-p-n$ . D)  $n-n-p$ .
22. Tok zanjiriga ketma-ket rezistor ( $R=20 \Omega$ ), kondensator ( $C=13 \text{ mF}$ ) va induktiv g'altak ( $L=130 \text{ H}$ ) ulangan. Rezonans ro'y berganda o'zgaruvchan tok kuchining amplituda qiymati 13 A deb hisoblab shu paytda aktiv qarshilikdagi kuchlanish amplitudasini (V) aniqlang.  
 A) 2600. B) 1300. C) 0. D) 260.
23. Elektromagnit tebranish konturidagi kondensator zaryadlanib induktiv g'altakga ulandi. Quyidagi vaqt intervalining ( $0-2,7T$ ) qanchasida tokning kamayishiga induksion tok qarshilik qiladi?  
 A)  $1,25T$ . B)  $2,2T$ . C)  $0,25T$ . D)  $2T$ .
24. Ultrabinafsha nurlarning nurlanish manbalariga nimalar kiradi?  
 A) quyosh, kosmos, lazer, elektr lampalar.  
 B) radioaktiv elementlar, lazerlar.  
 C) generatorlar, yuqori chastotali o'zgaruvchan toklar.  
 D) quyosh, transformatorlar.
25. Quyidagi jumlaning davom ettiring: Yorqinlik bu....

- A) vaqt birligi ichida biror yuzaga tushayotgan yorug'lik energiyasi.  
 B) birlik fazoviy burchak ostida tarqalayotgan yorug'lik oqimi.  
 C) tekis yoritilgan sirtning birlik yuzasiga tushayotgan yorug'lik oqimi.  
 D) yorug'lik maubaining yuza birligidan barcha yo'nalishlar bo'yicha nurlatayotgan yorug'lik oqimi.
26. Yassi sirtning  $10 \text{ dm}^2$  yuzasiga  $60^0$  burchak ostida tushayotgan nur intensivligi  $400 \text{ J}/(\text{m}^2 \cdot \text{s})$  ga teng. 20 s davomida sirtga tushayotgan yorug'lik oqimini toping (lm).  
 A) 40. B) 30. C) 20. D) 50.
27. Lazer nuri bitta impulsining energiyasi 35 J ga teng. Zargog'ozga tik tushgan lazer nuri undan to'liq akslanadi. Agar qog'oz massasi 1,6 mg bo'lsa, bitta impuls ta'sirida qog'ozning oladigan tezligini aniqlang (m/s).  
 A) 0,28. B) 0,035. C) 0,07. D) 0,15.
28. Atomda elektron impuls momentining qiymatini ya'ni orbita shaklini ifodalovchi sonlar?  
 A) orital kvant sonlar.  
 B) spin kvant sonlar.  
 C) bosh kvant sonlar.  
 D) magnit kvant sonlar.
29.  ${}_{92}^{235}\text{U}$  neytral atomidagi nuklonlar sonining neytronlar soniga nisbati qanday bo'ladi?  
 A) 235/143. B) 235/92.  
 C) 92/235. D) 46/143.
30. Yadrodagi nuklonlar orasidagi masofa  $1 \text{ F}$  ( $10^{-15} \text{ m}$ ) ga yaqin deb hisoblab yadrodagi modda zichligi qiymatining tartibini hisoblang. Nuklonlar massasi  $1,7 \cdot 10^{-27} \text{ kg}$ .  
 A)  $10^{16}$ . B)  $10^{15}$ . C)  $10^{18}$ . D)  $10^{17}$ .
1. 180 m balandlikdan erkin tushayotgan jismning oxirgi sekundda bosib o'tgan yo'li 3-sekundda bosib o'tgan yo'lidan necha marta katta?  
 A) 2,2 marta. B) 2 marta.  
 C) 3 marta. D) 1,5 marta.
2. Jism koordinatasi A (2;3;4) bo'lgan nuqtadan koordinatasi B (2;10;13) bo'lgan nuqtaga 3 s davomida, undan keyin esa C (14;6;8) nuqtaga 10 s davomida ko'chdi. Jismning o'rtacha ko'chish tezligi (m/s) qanday? (Koordinatalar sistemasida oraliqlar metrlarda).  
 A) 1. B) 2. C) 3. D) 4.
3. Massasi 100 kg bo'lgan qayiqning harakatiga suvning qarshilik kuchi tezlikka proporsional bo'lib, proporsionallik koeffitsiyenti 9 kg/s ga teng. Qayiq 20 m masofani bosib o'tgandan keyin tezligi 2,2 m/s bo'lib qolsa, uning boshlang'ich tezligi qanday (m/s) bo'lgan?  
 A) 4. B) 3. C) 5. D) 2.
4. Jism balandligi 12 m, uzunligi 20 m bo'lgan qiya tekislik asosidan tepaga tomon qanday eng kichik boshlang'ich tezlik berilganda u qiya tekislik cho'qqisiga chiqadi (m/s)? Qiya tekislikning ishqalanish koeffitsiyenti 0,5 ga teng.  $g=10 \text{ N/kg}$ .  
 A) 20. B) 10. C) 25. D) 30.
5. Jism gorizont bilan  $60^0$  burchak tashkil qiluvchi qiya tekislikda turibdi. Jismga ta'sir etuvchi to'la reaksiya kuchi bilan qiya tekislik sirti orasidagi burchakning kotangens qiymatini toping. Jism bilan sirt orasidagi ishqalanish koeffitsiyenti

$\mu > \operatorname{tg} \alpha$  ga teng.

A) 0,25. B) 0,2. C) 0,5. D)  $\sqrt{3}$ .


6. Massasi  $m=1$  kg, tezligi  $v=100$  m/s bo'lgan snaryad portlaganda uning umumiy impulsi (1) va kinetik energiyasi (2) qanday o'zgaradi?

- A) 1-o'zgarmaydi; 2-ortadi.  
B) 1-o'zgarmaydi; 2-o'zgarmaydi.  
C) 1-kamayadi; 2-kamayadi.  
D) 1-ortadi; 2-ortadi.

7. Bir jinsli kvadrat plastinkaning tomonlari 1 m, massasi 2 kg.

Kvadratning uchlariga  $m_1, m_2, m_3, m_4$  nuqtaviy jismlar joylashtirilgan.  $m_1=8$  kg,  $m_2=10$  kg,  $m_3=2$  kg,  $m_4=0$  holda sistema og'irlik markazining Y koordinatasi (m) aniqlansin.

Kvadratning markazi koordinatalar boshida joylashgan.



A)  $-4/11$ . B)  $4/11$ . C)  $-3/2$ . D)  $1/4$ .

8. Pastga  $4 \text{ m/s}^2$  tezlanish bilan tekis tezlanuvchan harakatlanayotgan liftga suvga qisman botgan ikki paralell plastinka joylashgan. Plastinkalar orasidagi suvning ko'tarilish balandligini toping (mm). Plastinkalar orasidagi masofa 2 mm, suvning sirt taranglik koeffitsiyenti  $73 \text{ mN/m}$ .  $g=10 \text{ m/s}^2$ .


A) 5,2. B) 9,125. C) 4,56. D) 12,16.

9. 30 cm uzunlikdagi sterjenning bir uchi vertikal o'qqa mahkamlangan. Sterjenning ikkinchi uchiga esa sterjenga perpendikular va gorizontal

yo'nalgan 40 N kuch ta'sir etmoqda. Sterjen  $3^\circ$  burchakka burulishida qanday ish bajariladi (mJ)?  $\pi = 3$ .  
A) 667. B) 745. C) 900. D) 817.

10. Osmiyning erish harorati  $3033^\circ\text{C}$ , kobaltniki esa  $1495^\circ\text{C}$ . Osmiy-kobalt qotishmasining erish harorati qaysi haroratlar ( $^\circ\text{C}$ ) oralig'ida yotadi?  
A) (0;1495). B) (3033;4528).  
C) (1495;2264). D) (2264;3033).

11. Bir atomli ideal gaz dastlab adiabatik so'ngra izobarik kengaydi. Gazning boshlang'ich temperaturasi bilan oxirgi temperaturasi teng (rasmga qarang). Gazning to'liq kengayishida A ish bajarilsa, izobarik kengayishda qancha ish bajariladi?



A) 0,4A. B) 0,3A. C) 0,1A. D) 0,3A.

12. Ikkinchisining radiusi birinchisidan ikki marta katta bo'lgan metall sharchalarning har birida  $6e$  dan zaryad miqdori bor. Sharchalar bir-biriga tekkizilib, dastlabki masofaga qaytarilsa, elektronlar sharchalarda qanday taqsimlanadi? e-elementar zaryad.

- A)  $3e$ ;  $9e$ . B)  $6e$ ;  $6e$ .  
C)  $4e$ ;  $8e$ . D)  $8e$ ;  $4e$ .

13.  $\alpha$ -zarraning dastlabki tezligi  $2v$  ( $v \ll c$ ).  $\alpha$ -zarra uzoq masofadan dastlab tinch turgan protonga yaqinlashmoqda.  $\alpha$ -zarraning tezligi  $0,5v$  bo'lgan paytda protonning tezligi qanday bo'ladi?  $m_\alpha = 4m_p$ .



A)  $2v$ . B)  $3,5v$ . C)  $4,5v$ . D)  $6v$ .

14. Protonning tezligi  $v$ ,  $\alpha$ -zarra tezligi  $2v$ . Tezliklar bir-biriga tomon yo'nalgan. Bu sistema og'irlik markazining tezligi nimaga teng?  $m_\alpha = 4m_p$ ,  $v \ll c$ .  
A)  $2v$ . B)  $5v$ . C)  $6v$ . D)  $7v/5$ .

15. Kuchlanganlik vektori gorizontaal yo'nalgan, moduli  $1,73 \text{ kV/cm}$  ga teng bo'lgan bir jinsli elektr maydonida  $60 \text{ cm}$  uzunlikdagi vaznsiz, cho'zilmaydigan ipga elektr zaryadi  $1 \mu\text{C}$ , massasi  $10 \text{ g}$  metall sharcha osib qo'yilgan. Agar elektr maydoni keskin yo'qolsa, sharcha qanday maksimal kinetik energiyaga ega bo'ladi (mJ)?  
A) 3. B) 40. C) 25. D) 30.

16.  $\alpha$ -zarra elektr maydonida  $6,4 \cdot 10^{11} \text{ m/s}^2$  tezlanish bilan harakatlanishi uchun elektr maydon kuchlanganligi qanday (kV/m) bo'lishi kerak?  
A) 6,64. B) 3,32. C) 13,28. D) 11,72.


17. Metallarni qizdirishdan elektronlarning undan otilib chiqishi... deb ataladi.  
A) termoelektron emissiya.  
B) fotoelektron emissiya.  
C) avtoelektron emissiya.  
D) ikkilamchi elektron emissiya.

18. Yorug'lik ta'sirida yarimo'tkazgich elektr o'tkazuvchanligi qanday o'zgaradi?  
A) kamayadi. B) ortadi.  
C) o'zgarmaydi. D) avval ortib, keyin kamayadi.

19. Yerning janubiy qutbini aniqlab beruvchi asbob?  
A) kompas. B) soat.  
C) termometr. D) TJY.


20. Quyida keltirilgan sxemadan

foydalanib K va L nuqtalar orasida umumiy qarshilikni aniqlang.



- A)  $9R$ . B)  $R$ . C)  $3R$ . D)  $6R$ .

21. I va A nuqtalar orasidagi qarshilik qiymati qaysi oraliqda yotadi ( $\Omega$ )?  $R_1 = \dots = R_8 = 46 \Omega$ ,  $R_9 = \dots = R_{14} = 151 \Omega$ ,  $R_{15} = R_{16} = R_{17} = 1151 \Omega$ .



- A) [46; 151]. B) [151; 2262].  
C) (0; 46). D) [2262; 22262].

22. Elektromagnit to'lqin dielektrik singdiruvchanligi  $\epsilon = 11$  bo'lgan muhitdan havoga o'tdi. Bunda uning tebranish vaqtiga teng vaqt davomida ko'chish masofasi qanday o'zgaradi?  
A) avval ortadi, so'ngra kamayadi.  
B) o'zgarmaydi. C) kamayadi.  
D) ortadi.

23. Elektromagnit tebranish konturidagi kondensator zaryadlanib induktiv g'altakga ulandi. Quyidagi vaqt intervalining (0-4,7T) qanchasida tokning kamayishiga induksion tok qarshilik qiladi?  
A) 1,25T. B) 2,2T. C) 0,25T. D) 2T.

24. Parallel nurlar dastasi yig'uvchi linzaning optik o'qiga  $45^\circ$  burchak

ostida tushmoqda. Agar bu nurlar dastasining birinchi cheti fokusdan, ikkinchi cheti esa optik markazdan o'tsa va bu nurlar optik o'qdan 1 cm masofada yig'lsa, nurlar dastasining diametrini aniqlang (cm).

A)  $\sqrt{2}/2$ . B) 1. C) 4. D) 5.

25. Quyidagi jumlaning davom ettiring: Ravshanlik bu....

- A) vaqt birligi ichida biror yuzaga tushayotgan yorug'lik energiyasi.  
 B) birlik fazoviy burchak ostida tarqalayotgan yorug'lik oqimi.  
 C) tekis yoritilgan sirtning birlik yuzasiga tushayotgan yorug'lik oqimi.  
 D) manba sirtining yuzasi birligidan perpendikular tarqalayotgan yorug'lik kuchi.

26. Elektromagnit to'lqin rezonans tufayli hosil bo'ladigan nurlanish qanday ataladi?

- A) erkin nurlanish.  
 B) so'nuvchi nurlanish.  
 B) majburiy nurlanish.  
 C) spontan nurlanish.

27. De-Broyl gipotezasiga ko'ra  $p = h/\lambda$ ,  $E = h\nu$  munosabatlari faqat fotonlarga emas, balki, elektronlar uchun ham o'rinlidir. Ikkinchi tenglikka asosan harakatdagi elektron tebranishlari chastotasini aniqlang (Hz).

Harakatdagi elektron energiyasi  $2,32 \cdot 10^{-13}$  J.  $h = 6,63 \cdot 10^{-34}$  J·s.

- A)  $3,5 \cdot 10^{18}$ . B)  $3,5 \cdot 10^{19}$ .  
 C)  $3,5 \cdot 10^{20}$ . D)  $3,5 \cdot 10^{21}$ .

28. Atomda elektronning orbitadagi impuls momentini berilgan yo'nalishga proyeksiyasini aniqlovchi sonlar?

- A) orbital kvant sonlar.  
 B) spin kvant sonlar.

C) bosh kvant sonlar.

D) magnit kvant sonlar.

29.  ${}_{92}^{235}\text{U}$  neytral atomidagi protonlar sonining elektronlar soniga nisbati qanday bo'ladi?

- A) 1. B)  $235/92$ .  
 C)  $92/235$ . D)  $46/143$ .


30. Yadrodagi nuklonlar orasidagi masofa  $1 \text{ F}$  ( $10^{-15} \text{ m}$ ) ga yaqin deb hisoblab yadrodagi modda zichligini suv zichligiga nisbatini aniqlang.

Nuklonlar massasi  $1,7 \cdot 10^{-27} \text{ kg}$ .

- A)  $10^{14}$ . B)  $10^{15}$ . C)  $10^{18}$ . D)  $10^{17}$ .

### Variant – 23

1. Rasmda moddiy nuqta tezligining vaqtga bog'liqlik grafigi tasvirlangan. Vaqt  $t=8 \text{ s}$  bo'lganda tezlik (m/s) qancha bo'lgan?



- A) 9,4. B) 10,1. C) 9,8. D) 8.

2. Burchak tezlanishi vaqt bo'yicha  $\varepsilon = 12\pi - 3\pi t$  qonuniyat bilan o'zgarayotgan jismning burchak tezlanishi nolga teng bo'lgunga qadar vaqtda o'rtacha burchak tezligini toping (rad/s). Jismning boshlang'ich burchak tezligi  $10\pi \text{ rad/s}$  ga teng.


- A)  $29\pi$ . B)  $24\pi$ . C)  $27\pi$ . D)  $26\pi$ .

3. Qayiq massasi 100 kg. Suvning qayiq harakatiga qarshilik kuchi tezlikka proporsional bo'lib, proporsionallik koeffitsiyenti  $20 \text{ kg/s}$  ga teng. Qanday masofada (m) qayiq tezligi  $4 \text{ m/s}$  dan  $1 \text{ m/s}$  gacha kamayadi?

- A) 10. B) 25. C) 15. D) 20.
4. Brusok qiyaligi  $45^\circ$  bo'lgan qiya tekislik bo'ylab yuqoriga harakatga keltirildi. Biroz vaqtdan so'ng to'xtab pastga tomon sirpana boshladi. Agar brusok bilan qiya tekislik orasidagi ishqalanish koeffitsiyenti 0,8 ga teng bo'lsa, uning qiya tekislik bo'ylab tushish vaqti chiqish vaqtidan uch marta ko'p?  $g=10 \text{ N/kg}$ .  
A) 3. B) 1/3. C) 9. D) 1/9.
5. Jism gorizont bilan  $\alpha$  burchak tashkil qiluvchi qiya tekislikda turibdi. Jismga ta'sir etuvchi to'la reaksiya kuchi bilan qiya tekislik sirti orasidagi burchakning kotangens qiymatini toping. Jism bilan sirt orasidagi ishqalanish koeffitsiyenti  $tg\alpha > \mu > tg(\alpha/2)$  ga teng.  
A)  $tg\alpha$ . B)  $ctg\alpha$ . C)  $tg\alpha/2$ . D) 0.
6. Massasi  $m=1,38 \text{ kg}$ , tezligi  $v=100 \text{ m/s}$  bo'lgan snaryad portlaganda uning umumiy impulsi o'zgarmadi. Portlash davomida snaryadning umumiy kinetik energiyasi qanday o'zgaradi?  
A) ortadi, chunki portlashda to'liq mexanik energiya saqlanadi.  
B) o'zgarmaydi, chunki ichki kuchlar sistemaning kinetik energiyasini o'zgartira olmaydi.  
C) ortadi, chunki ichki kuchlarning bajargan ishi sistemaning kinetik energiyasini o'zgartira oladi.  
D) o'zgarmaydi, chunki portlashda to'liq mexanik energiya saqlanadi.
7. Yuk mashinasi yo'lning 100 m radiusli burilish qismida 108 km/h tezlik bilan harakatlanmoqda. Mashina olib ketayotgan idishdagi suv sirti bunda statsionar og'ma holatga kelgan. Suv sirtidan 10 cm masofada suv ichida

joylashgan nuqtadagi gidrostatik bosim (kPa) nimaga teng?  $g=10 \text{ m/s}^2$ .  
A)  $\sqrt{1,33}$ . B) 1. C)  $\sqrt{1,11}$ . D)  $\sqrt{1,81}$ .

8. Yuqoriga 4 m/s tezlik bilan tekis harakatlanayotgan liftda suvga qisman botgan ikki paralell plastinka joylashgan. Plastinkalar orasidagi suvning ko'tarilish balandligini toping (mm). Plastinkalar orasidagi masofa 2 mm, suvning sirt taranglik koeffitsiyenti 73 mN/m.  $g=10 \text{ m/s}^2$ .  
A) 7,3. B) 9,125. C) 4,56. D) 12,16.
9.  $L$  uzunlikdagi sterjenning bir uchi vertikal o'qqa mahkamlangan. Sterjenning ikkinchi uchiga esa sterjenga perpendikular va gorizonttal yo'nalgan  $F$  kuch ta'sir etmoqda. Sterjen  $\alpha^\circ$  burchakka burulishida qanday ish bajariladi?  
A)  $A = \frac{\alpha^\circ \cdot L \cdot F}{180^\circ}$ .  
B)  $A = \frac{\alpha^\circ \cdot \pi \cdot L \cdot F}{90^\circ}$ .  
C)  $A = \frac{\alpha^\circ \cdot \pi \cdot L \cdot F}{360^\circ}$ .  
D)  $A = \frac{\alpha^\circ \cdot \pi \cdot L \cdot F}{180^\circ}$ .
10. Bir atomli ideal gaz dastlab adiabatik so'ngra izobarik siqildi. Gazning boshlang'ich temperaturasi bilan oxirgi temperaturasi teng (rasmga qarang). Gazning to'liq siqilishda  $A$  ish bajarilsa, izobarik siqilishda gaz molekulari qancha ish bajaradi?




- A)  $-2A/5$ . B)  $3A/5$ . C)  $0,3A$ . D)  $0,2A$ .

Jumaniyazov Temur

11. Temirning erish harorati  $1538^{\circ}\text{C}$ , kumushniki esa  $962^{\circ}\text{C}$ . Temir-kumushli qotishmasining erish harorati qaysi haroratlar ( $^{\circ}\text{C}$ ) oralig'ida yotadi?  
 A) (1250; 1538). B) (1538; 2500).  
 C) (0; 962). D) (962; 1250).

12. Rasmdagi kvadratlarining tomoni 1 m ga teng.  $q$  zaryad 15-nuqtada joylashgan bo'lsa, potentsiallar nisbati  $\varphi_9/\varphi_{19}$  nimaga teng?



- A)  $\sqrt{5/13}$ . B)  $\sqrt{13/5}$ .  
 C)  $\sqrt{8/37}$ . D)  $\sqrt{37/8}$ .

13. Dastlabki tezligi  $v$  ( $v \ll c$ ) bo'lgan proton uzoq masofadan dastlab tinch turgan  $\alpha$ -zarraga yaqinlashmoqda.  $\alpha$ -zarraning tezligi  $0,2v$  bo'lgan paytda protonning tezligi qanday bo'ladi?  $m_{\alpha} = 4m_p$ .  
 A)  $0,1v$ . B)  $0,2v$ .  
 C)  $2v/9$ . D)  $0,025v$ .

14.  $\alpha$ -zarraning dastlabki tezligi  $v$  ( $v \ll c$ ).  $\alpha$ -zarra uzoq masofadan dastlab tinch turgan protonga yaqinlashmoqda. Bu sistemaning og'irlik markazining tezligi qanday?  
 $m_{\alpha} = 4m_p$ .  
 A)  $0,7v$ . B)  $0,6v$ . C)  $0,55v$ . D)  $0,8v$ .

15. Elektr sig'imi  $C_1=C_2=C_3=2 \mu\text{F}$  dan bo'lgan kondensatorlardan ikkitasi o'zaro parallel, uchinchi esa ularga ketma-ket ulangan. Kondensatorlar batareyasi o'zgarmas kuchlanish

manбайдan zaryadlangan. Birinchi kondensator olgan elektr zaryadi  $3 \text{ nC}$  ga teng bo'lsa, uchinchi kondensator olgan elektr zaryadini aniqlang (nC).  
 A) 6. B) 9. C) 3. D) 1.

16. Koordinatasi  $x = 0$  bo'lgan nuqtada joylashgan  $6q$  zaryadning  $x_1=7,9 \text{ cm}$  nuqtada hosil qilgan elektr maydon potentsiali  $\varphi_1$  shu zaryadning  $x_2=15,8 \text{ cm}$  nuqtada hosil qilgan  $\varphi_2$  dan  $\Delta\varphi$  ga ko'p. Potentsiali  $\varphi_2$  dan  $\Delta\varphi$  ga kam bo'lgan nuqta  $6q$  zaryaddan qanday uzoqlikda joylashgan?  
 A) 7,8. B) 0,25. C) 6,9. D)  $\infty$ .

17. O'tkazgichdagi elektr maydon kuchlanganligi  $2 \text{ mV/m}$  vaqt birligida ajralib chiqayotgan Joul issiqlik zichligi  $0,2 \text{ W/m}^3$ . Muhitning solishtirma qarshiligi ( $\mu\Omega \cdot m$ ) nimaga teng?  
 A) 10. B) 5. C) 20. D) 4.

18. O'zgaras tok manbaiga to'g'ridan to'g'ri ulangan ideal voltmeter nimani o'lchaydi?  
 A) tok kuchini. B) manba ichki qarshiligiga tushadigan kuchlanishni.  
 C) E.Yu.K ni.  
 D) qisqa tutashuv tokini.

19. Metallarni nur bilan yoritishda elektronlarning undan o'tilib chiqishi... deb ataladi.  
 A) termoelektron emissiya.  
 B) fotoelektron emissiya.  
 C) avtoelektron emissiya.  
 D) ikkilamchi elektron emissiya.

20. Issiqlik ta'sirida yarimo'tkazgich elektr o'tkazuvchanligi qanday o'zgaradi?  
 A) kamayadi. B) ortadi.  
 C) o'zgarmaydi.  
 D) avval ortib, keyin kamayadi.

21. O'tkazgichdan yasalgan halqadan tok o'tmoqda. Agar unga rasmda ko'rsatilgandek tok o'tayotgan ikkinchi halqa yaqinlashtirilsa, birinchi halqa markazidagi magnit induksiyasi qanday o'zgaradi?



- A) ortadi. B) kamayadi.  
C) o'zgarmaydi. D) avval ortib, keyin kamayadi.
22. Elektromagnit to'lqin magnit kirituvchanligi  $\mu=11$  bo'lgan muhitdan havoga o'tdi. Bunda uning tebranish vaqtiga teng vaqt davomida ko'chish masofasi qanday o'zgaradi?  
A) avval ortadi, so'ngra kamayadi.  
B) o'zgarmaydi. C) kamayadi.  
D) ortadi.
23. Elektromagnit tebranish konturidagi kondensator zaryadlanib induktiv g'altakga ulandi. Quyidagi vaqt intervalining (0-0,7T) qanchasida tokning kamayishiga induksion tok qarshilik qiladi?  
A) 1,25T. B) 2,2T. C) 0,25T. D) 2T.
24. Parallel nurlar dastasi yig'uvchi linzaning optik o'qiga  $45^\circ$  burchak ostida tushmoqda. Agar bu nurlar dastasining birinchi cheti fokusdan, ikkinchi cheti esa optik markazdan o'tsa va bu nurlar optik o'qdan 1 cm masofada yig'ilsa, linzaning fokus masofasini aniqlang (cm).  
A) 1. B) 2. C) 3. D) 4.
25. Qanday moddalar qizdirilganda tutash spektr hosil qiladi?


- A) qattiq. B) atomar gazlar.  
C) molekulyar gazlar.  
D) qattiq va gaz.

26. Oq yorug'lik shishadan vakuumga o'tmoqda. Javoblarda keltirilgan qaysi nur uchun to'la ichki qaytish burchagi eng kichik bo'ladi?  
A) havorang. B) pushti.  
C) yashil. D) sariq.
27. De-Broyl gipotezasiga ko'ra  $p = h/\lambda$ ,  $E = h\nu$  munosabatlari faqat fotonlarga emas, balki, elektronlar uchun ham o'rinlidir. Ikkinchi tenglikka asosan harakatdagi elektron tebranishlari chastotasini aniqlang (Hz). Harakatdagi elektron energiyasi  $4,64 \cdot 10^{-13}$  J.  $h=6,63 \cdot 10^{-34}$  J·s.  
A)  $7 \cdot 10^{20}$ . B)  $1,5 \cdot 10^{19}$ .  
C)  $1,5 \cdot 10^{18}$ . D)  $7 \cdot 10^{21}$ .
28. Atomda elektronning o'z o'qi atrofidagi aylanishida xususiy impuls momentini bildiruvchi sonlar?  
A) orital kvant sonlar.  
B) spin kvant sonlar.  
C) bosh kvant sonlar.  
D) magnit kvant sonlar.
29.  ${}_{92}^{238}\text{U}$  neytral atomidagi elektronlar sonining neytronlar soniga nisbati qanday bo'ladi?  
A) 46/73. B) 45/76.  
C) 92/235. D) 46/143.
30. Vodород atomidagi elektron impuls momenti nimaga teng?  
A)  $hn/4\pi$ . B)  $h/2\pi$ .  
C)  $hn/2\pi$ . D)  $hn/\pi$ .

### Variant – 24

1. Rasmda moddiy nuqta tezligining vaqtga bog'liqlik grafigi tasvirlangan.

Vaqt  $t=1$  s bo'lganda tezlik (m/s) qancha bo'lgan?



A) 9,4. B) 10,1. C) 3. D) 9,1.

2. Jism to'g'ri chiziq bo'ylab 6 km masofani 24 km/h tezlik bilan bosib o'tdi. So'ngra harakat yo'nalishiga tik ravishda 32 km/h tezlik bilan harakatlandi. Butun yo'ldagi o'rtacha tezligi 28 km/h ga teng bo'lsa, uning ko'chishini toping (km).

A) 10. B) 20. C) 15. D) 5.

3. Suvning qayiq harakatiga qarshilik kuchi tezlikka proporsional bo'lib, proporsionallik koeffitsiyenti 18 kg/s ga teng. Qayiqning massasi 100 kg va boshlang'ich tezligi 4 m/s bo'lsa, 20 m masofani bosib o'tgandan keyin uning tezligi qanday (m/s) bo'ladi?

A) 0,1. B) 0,4. C) 0,2. D) 0,5.

4. Massasi 8 kg bo'lgan brusok yer sirtida harakatlanmoqda. Unga 10 N sirpanish ishqalanish kuchi ta'sir etmoqda. Agar brusok va sirt orasidagi ishqalanish koeffitsiyentini o'zgartirmay brusokning massasi 5 marta kamaytirilsa, unga qanday ishqalanish kuchi ta'sir etadi?

A) 10. B) 2. C) 8. D) 5.

5. Reaktiv dvigatel kemaga 1 km/s tezlik bergan. Kema yer sirtidan qanday maksimal masofaga (km) ko'tariladi? Yer radiusi 6300 km,  $g=10$  m/s<sup>2</sup>.

A) 32. B) 38. C) 45. D) 50.

6.  $m$  massali sharcha  $v$  tezlikda tinch turgan massiv devorga elastik urilib


qaytsa, sharchaning keyingi tezligi qanday bo'ladi?

A)  $3v$ . B)  $2v$ . C)  $-4v$ . D)  $-v$ .

7. Bir jinsli kvadrat plastinkaning tomonlari 1 m, massasi 2 kg.

Kvadratning uchlariga  $m_1, m_2, m_3, m_4$  nuqtaviy jismlar joylashtirilgan.  $m_1=8$  kg,  $m_2=6$  kg,  $m_3=4$  kg,  $m_4=2$  kg holda sistema og'irlik markazining (X;Y) koordinatasi (m) aniqlansin.

Kvadratning markazi koordinatalar boshida joylashgan.



A) (0; 0). B) (15; 0).

C) (15; 15). D) (0; 2/11).

8. Suv osti kemasi suv sathidan  $h=500$  m chuqurlikda bo'lgan paytda uning korpusida  $S = 2$  cm<sup>2</sup> yuzali teshik paydo bo'ldi.  $t=1,3$  min davomida bu teshikdan qancha suv kiradi (kg)?  $g=10$  m/s<sup>2</sup>.

A) 1300. B) 1460. C) 1500. D) 1560.


9. Silindrik idish tubining yuzasi 50 cm<sup>2</sup>. Idishning tubiga plastik sharcha bog'langan bo'lib, sharcha to'liq suv ichida turibdi. Ip uzilib sharcha yuqoriga qalqib chiqqanda suv sathi 4 cm ga pasaydi. Ipnining dastlabki taranglik kuchi qanday bo'lgan (N)? Sharcha vaznini hisobga olmang.  $g=10$  m/s<sup>2</sup>.

A) 4. B) 40. C) 2. D) 0,2.

10. Ikki mol geliy (He) gaziga izotermik jarayonda 16 J issiqlik berildi? Bunda gaz qancha ish bajardi (J)?

A) 12. B) 16. C) 6. D) 8.


11. Bir atomli ideal gaz dastlab adiabatik so'ngra izobarik siqildi. Gazning boshlang'ich temperaturasi bilan oxirgi temperaturasi teng (rasmga qarang). Gazning to'liq siqilishda 1000 J ish bajarilsa, adiabatik siqishda gaz molckulalari qancha ish bajaradi?



A) -600. B) 600. C) 1000. D) 300.


12. Protonning dastlabki tezligi  $v$  ( $v \ll c$ ). Proton uzoq masofadan dastlab tinch turgan  $\alpha$ -zarraga yaqinlashmoqda. Protonning tezligi  $0,2v$  bo'lgan paytda  $\alpha$ -zarraning tezligi qanday bo'ladi?  $m_\alpha = 4m_p$ .  
A)  $0,1v$ . B)  $0,05v$ . C)  $0,3v$ . D)  $0,2v$ .
13. Tezligi  $v$  ( $v \ll c$ ) bo'lgan proton uzoq masofadan dastlab tinch turgan  $\alpha$ -zarraga yaqinlashmoqda. Zarralarning tezliklari tenglashgan paytda bu tezlik qanday bo'lgan?  $m_\alpha = 4m_p$ .  
A)  $v/2$ . B)  $2v/9$ . C)  $v/4$ . D)  $v/5$ .
14. Elektr sig'imi  $C_1=C_2=C_3=2 \mu\text{F}$  dan bo'lgan kondensatorlardan ikkitasi o'zaro parallel, uchinchi esa ularga ketma-ket ulangan. Kondensatorlar batareyasi o'zgarmas kuchlanish manbaidan zaryadlangan. Ikkinchi kondensator olgan elektr zaryadi  $3 \text{ nC}$  ga teng bo'lsa, uchinchi kondensator olgan elektr zaryadini aniqlang (nC).  
A) 6. B) 3. C) 9. D) 1.

15. Rasmdagi kvadratlarning tomoni 1 m ga teng.  $q$  zaryad 45-nuqtada joylashgan bo'lsa, potentsiallar nisbati  $\varphi_{24}/\varphi_7$  nimaga teng?



A)  $\sqrt{5/13}$ . B)  $\sqrt{20/13}$ .  
C)  $\sqrt{8/37}$ . D)  $\sqrt{37/8}$ .


16. Keltirilgan sxemaga ko'ra kondensator kuchlanishlari nisbati  $U_1/U_2$  ni toping.



- A) 1. B)  $1/2$ . C)  $1/3$ . D)  $3/4$ .
17. O'tkazgichdagi tok zichligi  $2 \text{ kA/m}^2$ , vaqt birligida ajralib chiqayotgan Joule issiqlik zichligi  $0,2 \text{ W/m}^3$ . Muhitning solishtirma qarshiligi ( $\mu\Omega \cdot m$ ) nimaga teng?  
A) 0,01. B) 0,5. C) 0,05. D) 0,04.
18. O'zgarmas tok manbaiga to'g'ridan to'g'ri ulangan ideal ampermetr nimani o'lchaydi?  
A) tok kuchini. B) manba ichki qarshiligiga tushadigan kuchlanishni.  
C) E.Yu.K ni. D) qisqa tutashuv tokini.
19. Metallarni kuchli elektr maydonga kiritilganda maydon ta'sirida elektronlarning undan otilib chiqishi... deb ataladi.

- A) termoelektron emissiya.
- B) fotoelektron emissiya.
- C) avtoelektron emissiya.
- D) ikkilamchi elektron emissiya.

20. Yulduzlar qanday agregat holatdagi moddan tarkib topgan?  
A) qattiq. B) suyuq.  
C) plazma. D) gaz.
21. O'tkazgichdan yasalgan halqadan tok o'tmoqda. Agar unga rasmda ko'rsatilgandek tok o'tayotgan ikkinchi halqa yaqinlashtirilsa, birinchi halqa markazidagi magnit induksiyasi qanday o'zgaradi?



- A) ortadi. B) kamayadi.
  - C) o'zgarmaydi. D) avval ortib, keyin kamayadi.
22. Bikrligi 450 N/m bo'lgan, dastlab cho'zilmagan prujinaga  $m = 4,5$  kg massali yuk osilib, qo'yib yuborildi. Prujina deformatsiyasi nolga teng bo'lgan vaqtda yukning tezligi qanday bo'ladi (m/s)?  
A) 0. B) 20. C) 30. D) 10.
23.  $2^\circ$  burchakdagi sinusning qiymatini toping.  
A)  $\approx 0,035$ . B)  $\approx 0,55$ .  
C)  $\approx 0,25$ . D)  $\approx 2$ .
24. Parallel nurlar dastasi yig'uvchi linzaning optik o'qiga  $60^\circ$  burchak ostida tushmoqda. Agar bu nurlar dastasining birinchi cheti fokusdan, ikkinchi cheti esa optik markazdan o'tsa va bu nurlar optik o'qdan 4 cm


masofada yig'ilsa, nurlar dastasining dianetrini aniqlang (cm).  
A) 2. B) 1. C) 3. D) 4.

25. Qanday moddalar qizdirilganda chiziqli spektr hosil qiladi?  
A) qattiq. B) atomar gazlar.  
C) molekulyar gazlar.  
D) qattiq va gaz.
26. Difraksion panjaraga  $\lambda = 6 \cdot 10^{-7}$  m bo'lgan yorug'lik nuri tushmoqda. 2-tartibli spektr uchun  $\Delta\lambda = 0,5 \cdot 10^{-10}$  m. Difraksion panjaraning ajrata olish qobiliyati qancha?  
A) 5000. B) 10000. C) 12000. D) 6000.
27. Harakatlanuvchi elektronning kinetik energiyasi foton energiyasiga teng bo'lishi uchun elektron tezligi qanday bo'lishi lozim?  
A)  $\sqrt{\frac{2c}{m\lambda}}$ . B)  $\sqrt{\frac{hc}{m\lambda}}$ . C)  $\sqrt{\frac{2h}{m\lambda}}$ . D)  $\sqrt{\frac{2hc}{m\lambda}}$ .
28. Atomdagi elektron uchun bosh kvant sonning qiymatlari qanday bo'ladi?  
A)  $n=1, 2, 3, 4, 5, \dots$   
B)  $l=0, 1, 2, 3, 4, \dots, n-1$ .  
C)  $m=0, \pm 1, \pm 2, \pm 3, \pm 4, \dots, \pm l$ .  
D)  $n=\pm 1, \pm 2, \pm 3, \pm 4, \pm 5, \dots$
29. Uran  ${}_{92}^{234}\text{U}$  izotopidagi ikkita  $\alpha$  va bitta  $\beta$  yemirilishga uchraganidan so'ng yadrodagi protonlar soni nechtaga teng bo'ladi?  
A) 89. B) 90. C) 100. D) 76.
30. Lepton massasi nimaga teng bo'la oladi?  
A) 0 dan 1 elektron massasigacha.  
B) 1 elektrondan 1 proton massasigacha.  
C) 1 proton massasidan 2 ta proton massasigacha.  
D) ixtiyoriy bo'lishi mumkin.



## Variant – 25

1. Rasmda moddiy nuqta tezligining vaqtga bog'liqlik grafigi tasvirlangan. Vaqt  $t=5$  s bo'lganda tezlanish ( $m/s^2$ ) qancha bo'lgan?



- A) 0. B) 10. C) 11. D) 9.
2. Bino lifti 3-qavatdan 11-qavatga 10 s vaqt davomida ko'tarildi. Lift harakat davomida qanday o'rtacha tezlik bilan harakatlangan ( $m/s$ )? Bunda qavatlar o'rtasidagi masofa 3 metr.  
A) 2,4. B) 3. C) 4. D) 2.
3. Qayiqning massasi 100 kg, uning tezligi 6 m yo'lda 4 m/s dan 2,8 m/s gacha tushgan. Suvning qayiq harakatiga qarshilik kuchi tezlikka proporsional deb hisoblab, proporsionallik koeffitsiyenti ( $kg/s$ ) topilsin.  
A) 50. B) 40. C) 30. D) 20.
4. Lift shiftiga osilgan dinamometrغا 80 N og'irlikka ega bo'lgan yuk osilgan. Lift harakatga kelganda dinamometr ko'rsatkichi 80 N dan 108 N gacha oshdi. Lift qanday harakatlanmoqda?  $g=10$  N/kg.  
A)  $3,5 m/s^2$  tezlanish bilan pastga.  
B)  $3,5 m/s^2$  tezlanish bilan yuqoriga.  
C)  $4 m/s^2$  tezlanish bilan yuqoriga.  
D)  $4 m/s^2$  tezlanish bilan pastga.
5. Massasi 5 kg va zichligi  $0,4 g/cm^3$  bo'lgan shar suvda  $5 m/s^2$  tezlanish bilan ko'tarilmoqda. Sharga ta'sir qiluvchi barcha kuchlar teng ta'sir etuvchisining qiymatini (N) toping.  
A) 75. B) 50. C) 45. D) 25.

6.  $m$  massali sharcha  $v$  tezlikda tinch turgan massiv devorga elastik urilib qaytsa, sharchaning ichki energiyasi qanday o'zgaradi?  
A) o'zgarmaydi. B) ortadi.  
C) kamayadi. D) 2 marta ortadi.
7. 200 g massali temir sharcha 2 m balandlikdan erkin tushdi. Uning pol bilan birinchi va ikkinchi urilishi orasidagi vaqt intervali 1,2 sekund bo'ldi. Birinchi urilish paytida qancha energiya (mJ) issiqlikka aylanadi? Havoning qarshilik kuchini hisobga olmang.  $g=10$  N/kg.  
A) 400. B) 360. C) 320. D) 240.
8. Uzunligi 5 metr bo'lgan sterjenning birinchi yarmi  $\rho_1$  va ikkinchi yarmi  $\rho_2$  zichlikka ega. Agar  $\rho_1/\rho_2=7/9$  bo'lsa, sistemaning og'irlik markazi sterjen markazidan qanday masofada joylashgan (m)?  
A)  $5/32$ . B)  $4/33$ . C)  $5/27$ . D)  $5/33$ .
9. Silindrik idish tubining yuzasi  $150 cm^2$ . Idishning tubiga plastik sharcha bog'langan bo'lib, sharcha to'liq suv ichida turibdi. Ip uzilib sharcha yuqoriga qalqib chiqqanda suv sathi 2 cm ga pasaydi. Ipnning dastlabki taranglik kuchi qanday bo'lgan (N)? Sharcha vaznini hisobga olmang.  $g=10 m/s^2$ .  
A) 2. B) 20. C) 6. D) 3.
10. Ikki mol karbonat angidrid gaziga izotermik jarayonda 16 J issiqlik berildi? Bunda gaz qancha ish bajardi (J)?  
A) 12. B) 16. C) 6. D) 8.
11. Suv  $0^\circ C$  dan  $3^\circ C$  gacha isidi. Bunda uning zichligi qanday o'zgaradi?  
A) ortadi. B) kamayadi.


C) o'zgarmaydi. D) avval ortadi, keyin kamayadi.

12. Ikkinchisining radiusi birinchisidan ikki marta katta bo'lgan metall sharchalarning har birida  $5e$  dan zaryad miqdori bor. Sharchalar bir-biriga tekizilib, dastlabki masofaga qaytarilsa, ikki holdagi o'zaro ta'sirlashuv kuchlarining nisbati  $F_2/F_1$  nimaga teng?  $e$ -elementar zaryad.  
A) 24/25. B) 16/25. C) 21/25. D) 1.

13. Proton va pozitron bir chiziq bo'ylab uzoq masofadan bir xil  $v$  tezlik bir-biriga yaqinlashmoqda. Ta'sirlashuv so'ngida pozitronning tezligi qanday bo'ladi? Protonning massasi pozitronnikidan 1840 marta ortiq.  
A)  $3v$ . B)  $2v$ . C)  $v$ . D)  $v/2$ .

14. Tezligi  $v$  ( $v \ll c$ ) bo'lgan  $\alpha$ -zarra uzoq masofadan dastlab tinch turgan protonga yaqinlashmoqda. Zarralarning tezliklari tenglashgan paytda bu tezlik qanday bo'lgan?  
 $m_\alpha = 4m_p$ .  
A)  $v/2$ . B)  $2v/9$ . C)  $4v/5$ . D)  $v/5$ .

15. Keltirilgan sxemaga ko'ra kondensator kuchlanishlari nisbati  $U_4/U_3$  ni toping.




A) 1. B) 1/2. C) 1/3. D) 3/4.

16. Elektr sig'imi  $C_1=C_2=C_3=2 \mu F$  dan bo'lgan kondensatorlardan ikkitasi o'zaro parallel, uchinchi esa ularga ketma-ket ulangan. Kondensatorlar batareyasi o'zgarmas kuchlanish

manбайдan zaryadlangan. Uchinchi kondensator olgan elektr zaryadi  $3 \text{ nC}$  ga teng bo'lsa, birinchi kondensator olgan elektr zaryadini aniqlang (nC).  
A) 1,5. B) 3. C) 9. D) 1.

17. Quyida keltirilgan sxemadan foydalanib M va L nuqtalar orasida umumiy qarshilikni aniqlang.



A)  $9R$ . B)  $R$ . C)  $3R$ . D)  $6R$ .

18. Metallarni elektronlar oqimi bilan nurlantirganda undan elektronlarning chiqishi... deb ataladi.

A) termoelektron emissiya.  
B) fotoelektron emissiya.  
C) avtoelektron emissiya.  
D) ikkilamchi elektron emissiya.


19. Plazmda tok tashuvchi zarralar..... lardan iborat.

A) elektron. B) musbat va manfiy ion.  
C) musbat ion. D) manfiy ion.

20. Bir-biridan 5 m masofada joylashgan ikkita o'zaro parallel cheksiz to'g'ri o'tkazgichlardan  $3,14 \text{ A}$  dan tok bir yo'nalishda oqmoqda. Birinchi o'tkazgichdan 3 m va ikkinchisidan 4 m masofada joylashgan nuqtadagi natijaviy magnit maydon kuchlanganligini toping (A/m).

A) 5/24. B) 24/5. C) 10. D) 20.

21. E va F nuqtalar orasidagi qarshilik qiymati qaysi oraliqda yotadi ( $\Omega$ )?  
 $R_1=\dots=R_8=29 \Omega$ ,  $R_9=\dots=R_{14}=134 \Omega$ ,  $R_{15}=R_{16}=R_{17}=1134 \Omega$ .



- A) [46; 151]. B) [151; 2262]. C) (0; 29).  
D) [2262; 22262].

22. Tebranish davri  $T_1$  bo'lgan prujinali mayatnikning  $m$  massali yuki ferromagnit moddadan yasalgan. Mayatnik ostiga doimiy magnit qo'yilganda yuk magnitga qo'shimcha  $mg$  kuch bilan tortila boshladi. Ikkinchi holda tebranish davri  $T_2$  bo'lsa,  $T_1/T_2$  nisbatni aniqlang.  
A) 1. B) 0. C) 2. D) 4.

23. 60 m uzoqlikdagi daraxt  $1^\circ$  burchak ostida ko'rinmoqda. Daraxtning balandligi (m) qanday?  $\pi=3$ ;  $\sin\alpha \approx \alpha$ .  
A) 1,0. B) 2,6. C) 2,3. D) 2,4.

24. Parallel nurlar dastasi yig'uvchi linzaning optik o'qiga  $30^\circ$  burchak ostida tushmoqda. Agar bu nurlar dastasining birinchi cheti fokusdan, ikkinchi cheti esa optik markazdan o'tsa va bu nurlar optik o'qdan 6 cm masofada yig'ilsa, nurlar dastasining diametrini aniqlang (cm).  
A)  $3\sqrt{3}$ . B) 1. C) 3. D) 4.

25. Geliy gazining nurlanish spektri qanday?  
A) chiziqli. B) tutash.  
C) yo'l-yo'l. D) TJY.

26. Jismning birlik yuzasidan vaqt birligida birlik kenglikdagi chastotalar

intervalida chiqargan elektromagnit energiyasiga . . . qobiliyati deb ataladi.  
A) nur chiqarish. B) nur yutish.  
C) elektron qabul qilish.  
D) elektron chiqarish qobiliyati.

27. Elektronning tinchlikdagi massasi  $m$ . Yerga nisbatan  $0,2c$  tezlik ( $c$ -yorug'lik tezligi) bilan uchayotgan kosmik kemadagi olim ilmiy asboblardan bilan Yerdagi elektron massasini o'lchasa, qanday natija oladi?  
A)  $1,04m$ . B)  $m$ . C)  $1,8m$ . D)  $1,02m$ .
28. Atomdagi elektron uchun orbital kvant sonning qiymatlari qanday bo'ladi?  
A)  $n=1, 2, 3, 4, 5, \dots$   
B)  $l=0, 1, 2, 3, 4, \dots, n-1$ .  
C)  $m=0, \pm 1, \pm 2, \pm 3, \pm 4, \dots, \pm l$ .  
D)  $n=\pm 1, \pm 2, \pm 3, \pm 4, \pm 5, \dots$
29. Uran  ${}_{92}^{234}\text{U}$  izotopidagi bitta  $\alpha$  va ikkita  $\beta$  yemirilishga uchraganidan so'ng yadrodagi protonlar soni nechtaga teng bo'ladi?  
A) 138. B) 92. C) 100. D) 76.
30. Mezon massasi nimaga teng bo'la oladi?  
A) 0 dan 1 elektron massasigacha.  
B) 1 elektrondan 1 proton massasigacha.  
C) 1 proton massasidan 2 ta proton massasigacha.  
D) ixtiyoriy bo'lishi mumkin.

### Variant – 26

1. Boshlang'ich tezliksiz pastga erkin tashlangan jism 8-sekundda bosib o'tgan yo'li nechanchi sekundda bosib o'tgan yo'lidan 5 marta katta bo'ladi?  
A) 1-sekundda. B) 3-sekundda.  
C) 2-sekundda. D) 4-sekundda.

2. Zarraning harakati jadval bilan berilgan. Zarraning ko'chish tezligini toping.

t	0	$\Delta$	$2\Delta$
x	d	0	-2d


- A)  $-\frac{2d}{3\Delta}$ . B)  $\frac{d}{\Delta}$ . C)  $-\frac{3d}{2\Delta}$ . D)  $-\frac{2d}{\Delta}$ .
3. Jismning boshlang'ich tezligi 20 m/s ga teng. Jismga faqat muhitning qarshilik kuchi ta'sir qiladi deb hisoblab, uning tezligi to'rt marta kamaygandan toki to'xtagunga qadar qancha masofani o'tishini aniqlang (m). Qarshilik kuchi tezlikka proporsional. Qarshilik koeffitsiyenti 2 kg/s ga teng. Jism massasi 2 kg.  
A) 6. B) 5. C) 15. D) 20.
4. Lift shiftiga osilgan dinamometrga 90 N og'irlikka ega bo'lgan yuk osilgan. Lift harakatga kelganda dinamometr ko'rsatkichi 90 N dan 84 N gacha kamaydi. Lift qanday harakatlanmoqda?  $g=10$  N/kg.  
A)  $3,5$  m/s<sup>2</sup> tezlanish bilan pastga.  
B)  $3,5$  m/s<sup>2</sup> tezlanish bilan yuqoriga.  
C)  $4$  m/s<sup>2</sup> tezlanish bilan yuqoriga.  
D)  $2/3$  m/s<sup>2</sup> tezlanish bilan pastga.
5. Massasi 1,1 t bo'lgan avtomobil egrilik radiusi 500 m bo'lgan qavariq ko'priki ustida 20 m/s tezlik bilan tekis harakatlanmoqda. Ko'priknining eng yuqori nuqtasida unga ta'sir qiluvchi barcha kuchlarning (kN) teng ta'sir etuvchisi nimaga teng?  
A) 0,88. B) 0. C) 11. D) 9,9.
6. Massiv raketka tinch turgan yengil sharchaga  $v$  tezlik bilan tik kelib urildi. To'qnashuv elastik bo'lsa, sharcha qanday tezlikka erishadi?  
A)  $3v$ . B)  $2v$ . C)  $v$ . D)  $v/2$ .

7. 200 g massali temir sharcha 2 m balandlikdan erkin tushdi. Uning pol bilan birinchi va ikkinchi urilishi orasidagi vaqt intervali 0,8 sekund bo'ldi. Birinchi urilish paytida qancha energiya (mJ) issiqlikka aylanadi? Havoning qarshilik kuchini hisobga olmang.  $g=10$  N/kg.  
A) 2400. B) 1800. C) 1600. D) 1200.
8. Matematik mayatnik uzunligi  $l$  va massasi  $m$  ga teng bo'lgan sharchadan iborat. Mayatnik muvozanat vaziyatidan  $\alpha$  burchakka og'gan paytida uning tezlanishi  $a$  ga teng bo'lgan bo'lsa, o'sha vaqt momentida sharchaga ta'sir etuvchi kuchlarning teng ta'sir etuvchisi nimaga teng?  
A)  $F=mg$ . B)  $F=ma$ .  
C)  $F=0$ . D)  $F=mg/a$ .
9. Adiabatik jarayonda gaz 16 J ish bajardi. Bunda gazning ichki energiyasi qanchaga (J) o'zgardi?  
A) 8. B) -12. C) 16. D) -16.
10. Metan gaz molekullari dastlab 80 kPa bosim ostida turibdi. Uning hajmi 0,01 m<sup>3</sup> dan 0,0272 m<sup>3</sup> gacha izotermik oshdi. Metan molekullarining bajargan ishini (J) toping?  
A) 1100. B) 800. C) 1376. D) 2176.
11. Suv 3 °C dan 6 °C gacha isidi. Bunda uning zichligi qanday o'zgaradi?  
A) avval ortadi, keyin kamayadi.  
B) ortadi. C) kamayadi.  
D) o'zgarmaydi.
12. Proton  $v$  ( $v \ll c$ ) tezlik bilan tezligi  $0,6v$  bo'lgan pozitronga yetib olmoqda. Ularning tezliklari bir to'g'ri chiziq bo'ylab yo'nalgan, ular orasidagi dastlabki masofa katta bo'lgan. Proton bilan ta'sirlashgandan so'ng

pozitronning natijaviy tezligi qanday bo'lishini baholang. Protonning massasi pozitronnikidan 1840 marta ortiq.

A) 0,4v. B) 1,4v. C) 3v. D) 2,6v.

13. Rasmdagi kvadratlarning tomoni 1 m ga teng.  $q=10 \text{ nC}$  nuqtaviy zaryad 30-nuqtada joylashgan bo'lsa, potentsiallar ayirmasi  $\varphi_7 - \varphi_{32}$  nimaga teng?




A) 27 V. B) -27 V. C) 16 V. D) 23 V.

14. Metall quti ichida elektr maydon bo'lmasligi .... deb ataladi.

A) magnit himoya.  
B) elektrostatik himoya.  
C) elektr himoya.  
